

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

«BMINi himoya uchun DAKga
Tavsiya qilaman» fakultet
dekani _____ T.Sharipov
«____» _____ 2018 yil

**«Kasb ta'lifi» kafedrasi
5111008- kasb ta'lifi: buxgalteriya hisobi va audit
ta'lif yo'nalishi bo'yicha**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: KHKlarida “Baholash va kalkulyatsiya” mavzusini
innavatsion ta`lim texnologiyalari asosida o`qitish tamoyillari
(Kasb-hunar kollejlari misolida)**

Bajardi:KTB -114 guruh talabasi

Qaxxorova D.B.

Ilmiy rahbar: «Kasb ta'lifi»
kafedrasi assistenti:

Salomov F.F.

Malakaviy ish muhokama qilindi
va himoyaga ruxsat berildi:
«Kasb ta'lifi» kafedrasi
mudiri,
p.f.n.,dots._____O.J.Suyunov
«____»_____ 2018yil

SAMARQAND – 2018

MUNDARIJA

KIRISH.....	3-6
I-bob. Iqtisodiy ta'lilda buxgalteriya fanlarini o'qitish va innovatsion texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari.....	7-34
1.1. Buxgalteriya hisobi tizimida baholash va kalkulyatsiyaning mazmuni, mohiyati va xususiyatlari	7-27
1.2. Buxgalteriya fanlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari.....	28-34
II-bob. Kasb-hunar kollejlari o`qitish jarayoniga innovatsion ta`lim texnologiyalarini tatbiq etish amaliyoti va uning tahlili.....	35-46
2.1. Buxgalteriya fanlarini o`qitish usullari va uning ta`lim texnologiyasidagi o'rni.....	35-39
2.2. KHKlarida buxgalteriya fanlarini o'qitilishida pedagogik texnologiyalardan foydalanish holati va uning tahlili.....	40-46
III-bob. KHKlarida “Baholash va kalkulyatsiya” mavzusini innavatsion ta`lim texnologiyalari asosida o`qitish istiqbollari.....	47-59
3.1.Kasb-hunar kollejlarida innovatsion texnologiyalar asosida ta`lim jarayonini o`qitish uslubiyotini takomillashtirish va uning tamoyillari	48-54
3.2.Kasb-hunar kollejida xavfsiz ish sharoitini tashkil etish holati va majburiyatlar.....	55-59
Xulosa va takliflar.....	60-62
Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati.....	63-65
Ilovalar.....	66-67

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. 2017-2021 yillarda O`zbekistonni rivojlantitishni beshta usstuvor yo`nalishlari bo`yicha Harakatlar Strategiyasida O`zbekiston Respublikasida iqtisodiyot, ijtimoiy soha va ta`lim-tarbiyani rivojlantirish, aholi turmush darajasini yaxshilash uchun mamlakatimiz hukumati oldida turgan vazifalardan biri – bu yuqori malakali kadrlar tayyorlashdan iboratdir ekanligiga alohida ta`kid etilgandir.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta`lim-tarbiya sohasining yaxlit, uzlusiz tizimini shakllantirish va mustahkamlash, jumladan, umumiy o`rta ta`limdan boshlab o`rta maxsus, kasb-hunar hamda oliv ta`limgacha bo`lgan barcha bosqichlarda yuksak bilimli va malakali kasbiy tayyorgarligiga ega bo`lgan avlodni tarbiyalash jarayonini takomillashtirish alohida dolzarb vazifa ekanligini ta`kid etib o`tdilar.

Ma'lumki, O`zbekiston Respublikasining «Ta`lim to'g'risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta`limda islohotlarni amalga oshirishni ko`zda to'tadi. Innovatsion texologiyalardan foydalangan holda iqtisodiy tarbiyani mustahkamlash va bu jarayonda axborot ta'minotini zamon talablariga javob bera oladigan ko'rinishga keltirish, kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanmoqda.

Innovatsion texnologiyalarni vujudga kelishi, bu jamiyat rivojlanishi va talablar o`zgarishining natijasidir. Har bir yangi davr o`z o`zgarishlarini va yangiliklarini taqozo etadi. Yangi innovatsion texnologiyalarni tadbiq etishdan maqsad – ta`limning har bir yangi bosqichida ta`lim va tarbiya samarasini oshirishga qaratilgandir. Ta`lim-tarbiya jarayoni samarasini oshirish yangi sifat darajasiga o'tish imkonini beradi. Bu maqsadga erishish uchun esa innovatsion texnologiyalarni, ya'ni o'qitish jarayonining yangi samarali ko'rinishlarini ishlab chiqish lozim. Innovatsion texnologiyalar hozirgi davr uchun, ya'ni insonning rivojlanish darajasi va texnikaning erishgan darajasiga mos tushishi hamda inson va texnik resurslarni uyg'un birlashishini ta'minlashi kerak. Mana shu maqsad va

vazifalardan kelib chiqqan xolda innovatsion texnologiyalarning mazmuni bugungi kunda keng ko'lamda qaraladigan bo'lsa, u o'z navbatida ta'limni rivojlantirishga yo'naltirilishi darkor deb o`yayman.

Mavzuning o'r ganilganlik darajasi. Innovatsion texnologiyalarni o'quv jarayoniga tadbiq etish bugungi kunda dolzarb hisoblanganligi uchun mazkur muammo yuzasidan respulikamiz va xorijlik pedagoglar tomonidan tadqiq etib kelinmokda. Shuni aloxida ta'kidlash lozimki, iqtisodiy fanlarni o'qitish jarayoniga innovatsion texnologiyalarni olib kirish muammolari xususida bir qator olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan. Mavzuga tegishli masalalar K.B.Urazov, N.U. Xudayberdiyev¹, pedagogik texnologiyalar bilan bog`liq xususiyatlari E.A.Iskandarov, O.J.Suyunov² va boshqalarning ilmiy ishlarida o'r ganilgan.. Xorijiy mamlakat olimlari B.Saymon va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

Demak, ta'lim tizimida yangiliklarni tezkorlik bilan amalga oshirish imkoniga ega bo'lgan texnologiyalarni joriy qilinishini davrning o'zi talab qilmoqda.

Bitiruv malakaviy ishining tadqiqot maqsadi – Kasb-hunar kollej talabalarining iqtisodiy savodxonligini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish usullarini o'r ganishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining tadqiqot vazifalari:

- Kasb-hunar kollejlarda talabalarning iqtisodiy savodxonligini oshirishning zaruriyatini ko'rsatib o'tish;
- iqtisodiy fanlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini o'r ganish;
- iqtisodiy ta'limda o'qitish usullaari va uning ta'lim texnologiyasidagi o'rnini nazariy jihatdan tahlil qilish;
- kollejda innovatsion texnologiyalardan foydalanish darajasi tahlilini yoritish;

¹Urazov K.B., Xudayberdiyev N.U. Soliqlar va to`lovlar ayditining xususiyatlari. Samarqand – 2012 .

²Iskandarov E.A., Suyunov O.J. Pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. – Samarqand, 2012.

- kasb-hunar kollejida talabalarining iqtisodiy savodxonligini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning takomillashtirish yo'llarini aniqlash;

- kollej ta'limida innovatsion texnologiyalar asosida «Buxgalteriya hisobi nazariyasi» fanini o'qitish uslubiyotini takomillashtirish.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti. Tadqiqotning ob'ekti sifatida Samarqand iqtisodiyot kollejining o'quv jarayoni olindi. Uning predmeti - innovatsion texnologiyalari asosida talabalarning buxgalteriya bilimlariga doir savodxonligini oshirish hisoblanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Qo'lga kiritilgan amaliy tajribalar kollej o'quvchilarida iqtisodiy hulqni shakllantirishga va iqtisodiy savodxonligini oshirishga bo'lgan chora tadbirlarni belgilash, amaliyotga tadbiq etish imkonini beradi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi. Ushbu tadqiqot ishi kirish, uchta bob, 6 ta paragraf, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan bo'lib, uning umumiy hajmi 66 betdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining birinchi bobi “Iqtisodiy ta'limda buxgalteriya fanlarini o'qitish va innovatsion texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari” deb nomlanib, unda kasb-hunar kollejlarida talabalarning iqtisodiy savodxonligini oshirishning zaruriyati, buxgalteriya fanlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari, buxgalteriya hisobi tizimida baholash va kalkulyatsiyaning mazmuni, mohiyati va xususiyatlari o'r ganiladi.

Bitiruv malakaviy ishining ikkinchi bobi “Kasb-hunar kollejlarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish va uning tahlili”ga bag'ishlanadi. Mazkur bobda iqtisodiy fanlarni o'qitilishida pedagogik texnologiyalardan foydalanish holati tahlili atroflicha o'r ganildi.

Bitiruv malakaviy ishining uchinchi bobi “KHKlarida “Baholash va kalkulyatsiya” mavzusini innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish

istiqbollari” deb nomlanib, unda talabalarining iqtisodiy savodxonligini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning takomillashtirish yo’llari, kollej ta’limida innovatsion texnologiyalar asosida «Buxgalteriya hisobi nazariyasi» fanini o’qitish uslubiyotini takomillashtirishi masalalari yoritildi.

I-Bob. Iqtisodiy ta’limda buxgalteriya fanlarini o`qitish va innovatsion texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari

1.1. Buxgalteriya hisobi tizimida baholash va kalkulyatsiyaning mazmuni, mohiyati va xususiyatlari

Buxgalteriya hisobining muhim tamoyillaridan biri bo‘lib, oldingi bobda aytib o‘tganimizdek, baholash hisoblanadi. **Baholash** – bu korxona aktivlarining qiymatini pulda ifodalash usuli. **Kalkulyatsiya** –bu xo‘jalik aktivlarining sotib olish, ishlab chiqarish va sotish qiymatlarini hisoblab topish usuli.Korxona aktivlarini baholash negizida quyidagi qiymat turlari yotadi:

1.Boshlang‘ich qiymat – bu aktivlarni sotib olish, qurish, ishlab chiqarish va boshqa yo‘llar bilan kelib tushgan vaqtida shakllangan qiymati. Ushbu qiymat o‘z ichiga aktivlarni sotib olishga, qurishga va ishlab chiqarishga ketgan harajatlarni oladi. Bepul kelib tushgan aktivlarning boshlang‘ich qiymati komissiya tomonidan ekspert yo‘li bilan topiladi.

2.Qoldiq qiymat – bu aktivlarning boshlang‘ich qiymatidan foydalanish davrida jamlangan eskirish summasini chegirishdan keyin qolgan qiymati.

3.Sof sotish qiymati - bu aktivning sifati, holati, shuningdek bozordagi talab va taklifdan kelib chiqgan holda shakllangan qiymati. Ushbu qiymat yuqorida keltirilgan qiymat turlaridan kam ham, ko‘p ham bo‘lishi mumkin.

Korxona aktivlarining alohida turlarini baholash va kalkulyatsiya qilishda o‘ziga xos xususiyatlar mavjud va bunda turli usullardan foydalilanadi. Buxgalteriya hisobining boshqa hisob turlaridan yana bitta farqli xususiyati shundaki, unda aks ettirilgan xo‘jalik operatsiyalar qat’iy hujjatlashtirilgan bo‘ladi, ya’ni hisobda aks ettirilgan ma’lumotlar hujjatli asosga ega bo‘ladi. Bu o‘z navbatida buxgalteriya hisobi ma’lumotlarini muhimligini, ishonarliligini, yuridik kuchga ega ekanligini ta’minlaydi. Shuning uchun ham hujjatlashtirish buxgalteriya hisobining muhim usuli hisoblanadi. **Hujjatlashtirish** – bu xo‘jalik operatsiyalarini ma’lum bir hujjatlar bilan rasmiylashtirish usuli.**Hujjat** – bu ho‘jalik operatsiyalarini haqiqatda yuz bergenligiga guvoh beruvchi yoki ularni kelgusida yuz berishiga asos bo‘luvchi yozma guvohnoma. Masalan, tovar-moddiy

boyliklarni haqiqatda sotilganligi yoki olinganligiga schet-fakturalar, pulni kassaga olinganligiga kirim kassa orderi guvoh hisoblanadi. Boshqa bir hujjatlar xo‘jalik operatsiyalarini kelgusida yuz berishiga asos bo‘ladi, masalan berilgan ishonchnoma shu shaxs tomonidan boshqa korxonadan tovar-moddiy boyliklarni qabul qilib olishiga, chek esa kassirga pulni bankdan naqd olishga huquq beradi.

Buxgalteriya hisobida juda ko‘p turdagи hujjatlar ishlatiladi. Ularni turli belgilariga qarab tasniflash mumkin

Maqsadiga ko‘ra buxgalteriya hujjatlari guvohlik beruvchi, farmoyish beruvchi, farmoyish va guvohlik beruvchi, buxgalterlik hisob-kitoblarini aks ettiruvchi turlarga bo‘linadi. **Guvohlik beruvchi hujjatlar** deganda, yuqorida aytib o‘tganimizdek, xo‘jalik operatsiyalarini haqiqatda yuz bergenligiga guvoh beruvchi hujjatlar tushuniladi. **Farmoyish beruvchi hujjatlar** deganda u yoki bu harakatni kelgusida amalga oshirishga farmoyish beruvchi hujjatlar tushuniladi. Masalan, inventarizatsiya o‘tqazish to‘g‘risida farmoyish, tovarni olib kelush uchun berilgan ishonchnoma va shu kabilar. **Farmoyish va guvohlik beruvchi hujjatlar** deganda bir vaqtning o‘zida xo‘jalik operatsiyasini amalga oshirishga berilgan farmoyishni ifodalovchi, ham bu farmoyish asosida haqiqatda yuz bergen xo‘jalik operatsiyasiga guvohlik beruvchi hujjatlar tushuniladi. Masalan, kassa chiqim orderi bir vaqtning o‘zida pulni berilishi uchun tuzilgan rahbariyatning farmoyishini, shuningdek shu farmoyish asosida pulni haqiqatda kimgadir berilganligi to‘g‘risida guvohlik beruvchi hujjat hisoblanadi. Pul cheki ham xuddi shunday hujjat hisoblanadi. **Buxgalterlik hisob-kitoblarini aks ettiruvchi hujjatlar** deganda bevosita yuz bergen xo‘jalik operatsiyasini aks ettirmaydigan, lekinda u yoki bu ko‘rsatkichni, qarzni topish uchun buxgalter tomonidan tuzilgan hujjatlar tushuniladi. Bunday hujjatlarga misol qilib soliqlar hisob-kitoblarini, majburiy ajratmalar hisob-kitoblarini, amortizatsiyani aniqlash hisob-kitoblarini keltirish mumkin. *Tuzish tartibiga ko‘ra buxgalteriya hisobida ishlatiladigan hujjatlar blshlang‘ich va yig‘ma hujjatlarga bo‘linadi.* **Boshlang‘ich hujjatlar** deb xo‘jalik operatsiyasi sodir bo‘lgan vaqtda tuzilgan hujjatlar tushuniladi. Barcha guvohlik beruvchi hujjatlar boshlang‘ich hujjatlar hisoblanadi.

Yig‘ma hujjatlar deganda boshlang‘ich hujjatlar asosida tuzilgan va ularning ma’lumotlarini ma’lum davr uchun jamlab beradigan hujjatlar tushuniladi. Bunday hujjatlarga moddiy hisobotlar, avans hisobotlari, tovar-pul hisobotlari, bank ko‘chirmalari va boshqalar kiradi. Aks ettirish usullariga ko‘ra buxgalteriya hujjatlari bir marotaba yuz bergan va ko‘p marotaba yuz bergan operatsiyalarni aks ettiradigan hujjatlarga bo‘linadi. Moliyaviy investitsiyalarning har bir turini baholash va qayta baholash o‘ziga xos xususiyatlarga ega. ***Qimmatli qog‘ozlarga yo‘naltirilgan moliyaviy investitsiyalarni*** baholashda ikkita sana muhim rol o‘ynaydi:

-*Sotib olish sanasi*

-*Keyingi sanalar*

Sotib olish sanasi deganda, qimmatli qog‘ozlarga yo‘naltirilgan moliyaviy investitsiyalarni sotib olish, ya’ni ularni qabul qilib olish sanasi tushuniladi.

BXMS № 12 «Moliyaviy investitsiyalarning hisobi» ga muvofiq sotib olish sanasida qimmatli qog‘ozlarga yo‘naltirilgan moliyaviy investitsiyalar **sotib olish qiymatida** tan olinishi va hisobotda aks ettirilishi lozim.

Qimmatli qog‘ozlarga yo‘naltirilgan moliyaviy investitsiyalarning **sotib olish qiymati** deganda, ularni sotib olish bahosi sotib olishga ketgan harajatlar bilan birgalikda olingan qiymati tushuniladi. Sotib olishga ketgan harajatlarga brokerlik kantoralariga to‘langan haqlar, boj to‘lovi, bank xizmati haqlari va boshqa sotib olishga doir harajatlar kiradi. Sotib olish qiymati qimmatli qog‘ozlarga yo‘naltirilgan moliyaviy investitsiyalarning **boshlang‘ich qiymatini yoki balans qiymatini** tashkil qiladi.

Agar sotib olish sanasida sotib olish qiymatiga ma’lum sanagacha bo‘lgan davr uchun hisoblangan dividendlar va foizlar hissasi kiritilgan bo‘lsa, qimmatli qog‘ozlarga yo‘naltirilgan investitsiyaning balans qiymati o‘tkazib berilgan summadan sotuvchi tomonidan bo‘nak sifatida to‘langan foiz va dividendlar summasini chegirishdan keyin qolgan qiymatda aks ettirilishi lozim. Chunki sotib olish vaqtida olingan summa va sotib olish qiymati o‘rtasidagi farq investorning

investitsiyaga kiritgan mablag‘lari uchun avans tariqasida olgan daromadi hisoblanadi. Bu avans summa investitsiyani sotib olishdan to qaytarilganicha bo‘lgan davrda investor tomonidan doimiy daromad sifatida bir maromda hisobdan chiqarilib borishi kerak.

Keyingi sanalar deganda, sotib olingandan keyingi balans sanalari tushuniladi. Ushbu sanalarda qimmatli qog‘ozlarga yo‘naltirilgan moliviy investitsiyalar balansda turli qiymatda baholanishi mumkin. Jumladan, BXMS № 12 ning 15- punktiga muvofiq qimmatli qog‘ozlarga yo‘naltirilgan uzoq muddatli moliviy investitsiyalar qo‘yidagi baholardan biri bo‘yicha aks ettirilishi kerak:

- **Bozor qiymatida ;**
- **Sotib olish qiymatida;**
- **Bozor va sotib olish qiymatlaridan eng kichigida;**
- **Qayta baholangan qiymatda**

BHMS № 12 ning 13-moddasiga muvofiq qimmatli qog‘ozlarga yo‘naltirilgan qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar balansda **bozor qiymatida** yoki **bozor va sotib olish qiymatlarining eng kichik qiymatida** aks ettirilishi kerak. Agar ular bozor va sotib olish qiymatlarining eng kichik qiymatida hisobga olingan bo‘lsa, ularning balans qiymati qimmatli qog‘ozlar portfelining jami investitsiya qiymati, yoki qimmatli qog‘ozlarning guruhlari bo‘yicha qiymati, yoki qimmatli qog‘ozlarning alohida nomlari bo‘yicha qiymatiga asoslanib topiladi.

Qimmatli kogozlarga yunaltirilgan moliyaviy investitsiyalarning **bozor qiymati** deganda ularning moliya bozorida sotish vaqtida namoyon bo‘lgan **sotish qiymati** tushuniladi. Bozor qiymatini, boshqachasiga, haqqoniy **qiymat** deb ham ataydilar. Bu qiymat ko‘p omillarga bog‘liq, jumladan, aksionerlik jamiyati yoki tijorat bankining foydalilik darajasiga, to‘lanayotgan dividendlarning miqdoriga, ularning kelajakdagi obru-e’tiboriga va boshka omillarga.

Qiymat tamoyiliga muvofiq qimmatli qog‘ozlarga yo‘naltirilgan moliyaviy investitsiyalar boshqa aktivlar singari keyingi sanalarda yuqorida keltirilgan qiymatlarning eng kichik miqdorida balansda aks ettirilishi lozim. Ushbu

qiymatda uzoq muddatli qimmatli qog‘ozlar balansda investitsiya portfeli metodiga asoslanib aks ettiriladi. Qisqa muddatli qimmatli qog‘ozlar ularning bozor va sotib olish qiymatlarining eng kichik qiymatida hisobga olingan bo‘lsa, balansda qimmatli qog‘ozlar portfelining jami investitsiya qiymatiga, yoki qimmatli qog‘ozlar guruhlari bo‘yicha qiymatiga, yoki qimmatli qog‘ozlarning alohida nomlari bo‘yicha qiymatiga asoslanib aks ettiriladi.

Keyingi sanalarda bozor qiymati sotib olish qiymatidan past bo‘lsa qimmatli qog‘ozlarga yo‘naltirilgan moliyaviy investitsiyalarning sotib olish qiymati bozor qiymati darajasigacha yetkazilishi va balansda shu qiymat bilan aks ettilishi kerak. Agar sotib olish qiymati bozor qiymatidan past bo‘lsa , u holda qimmatli qog‘ozlarga yo‘naltirilgan moliyaviy investitsiyalarning qiymati balansda o‘zgarishsiz qoldirilishi lozim. Hozirgi vaqtda amaliyotda bu tamoyilga to‘liq amal qilinayotgan emas. Korxonalar balansida sotib olingan qimmatli qog‘ozlar, jumladan aksiyalar, asosan sotib olish qiymatida (nominal qiymatda) aks ettirilmokda. Bozor qiymatini o‘zgarishi, ya’ni uni sotib olish qiymatidan past yoki yuqori bo‘lishi, ularning ichidan eng quyi miqdorini ifodalovchi qiymati balansda aks ettirilmasdan qolmoqda. Bu holning mavjudligiga sabablardan biri bulib, korxonalarning hisob siyosatida qimmatli qog‘ozlarga yo‘naltirilgan investitsiyalarning keyingi sanalarda qiymatini ko‘rib chiqilishi tartibini aniq belgilanmaganligi hisoblanadi.

BHMS № 1 «Hisob siyosati va moliviy hisobot» ga muvofiq korxonalar o‘zlarining hisob siyosatlarida qimmatli qog‘ozlarga yo‘naltirilgan moliyaviy investitsiyalari bo‘yicha quyidagilarni aniq belgilab olishlari darkor.

1.Qimmatli qog‘ozlarga yo‘naltirilgan moliyaviy investitsiyalarni keyingi sanalarda baholash turini

2.Qayta baholashga asos bo‘lgan hisob usulini

3.Qayta baholashni qimmatli qog‘ozlarning nomlari, guruhlari yoki investitsiya portfeli bo‘yicha davriyilagini

Qimmatli qog‘ozlarga yo‘naltirilgan moliyaviy investitsiyalarni keyingi sanalarda baholash ular qiymatini haqqoniyligini ta’minlash uchun zarur

hisoblanadi, shuning uchun ham ularning qiymatini qayta baholash zaruriyati tug‘iladi.

BHMS № 12 «Moliyaviy investitsiyalarning hisobi» qimmatli qog‘ozlar qiymatini qayta baholashni quyidagi uchta usullardan biri bo‘yicha amalga oshirishni taqoza etadi:

- Qimmatli qog‘ozlar nomlari bo‘yicha;
- Qimmatli qog‘ozlar guruhlari bo‘yicha;
- To‘liq investitsiya portfeli bo‘yicha

Birinchi usulda qayta baholash har bir qimmatli qog‘oz bo‘yicha individual tarzda amalga oshiriladi, ya’ni uning sotib olish va bozor (haqqoniy) qiymatlaridan qaysi biri kichik bo‘lsa, o‘sha qiymat qayta baholash qiymati sifatida tanlab olinadi va shu qiymatda u qayta baholangan sanaga tuzilgan balansda aks ettiriladi. Qayta baholash natijasida har bir aksiya bo‘yicha oshirilgan yoki kamaytirilgan qiymat summasi topiladi. O‘rtadagi farq qimmatli qog‘ozlarning balans qiymatini oshishiga yoki kamayishiga olib keladi. Oshirilgan qiymat qayta baholashdan olingan daromad sifatida xususiy kapitalni ko‘payishiga olib boriladi. Pasaytirilgan qiymat esa korxonaning harajati sifatida tan olinadi va u moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobotga kiritiladi.

Ikkinchi usulda qayta baholash qimmatli qog‘ozlarning guruhlari bo‘yicha amalga oshiriladi. Guruh sifatida, odatda, ma’lum bir korxona (masalan, aksionerlik jamiyati, aksionerlik tijorat banki) hisoblanadi. Ushbu usulda guruhga kirgan qimmatli qog‘ozlarning sotib olish va bozor qiymatlari ichidan eng kichigi tanlab olinib, shu qiymatda guruhga kirgan barcha qimmatli qog‘ozlarning qayta baholangan qiymatdagi summasi topiladi. Qayta baholash natijasida har bir guruh bo‘yicha qimmatli qog‘ozlarning oshirilgan va kamaytirilgan qiymat summalarini topiladi. Barcha guruhlar bo‘yicha birgalikda topilgan summalar o‘rtasidagi farq jami qimmatli qog‘ozlarning balans qiymatini oshishiga yoki kamayishiga olib keladi. Oshirilgan qiymat, xuddi birinchi usuldagidek, qayta baholashdan olingan daromad sifatida xususiy kapitalga kiritiladi, pasaytirilgan qiymat esa- korxona harajati sifatida tan olinadi va hisobotda aks ettiriladi.

Uchinchi usulda qayta baholash jami investitsiya portfeli bo‘yicha amalga oshiriladi. Ushbu usulda guruhrar bo‘yicha qayta baholash natijasida oshirilgan qiymat summasi xususiy kapital summasiga kiritiladi, pasaytirilgan qiymat summasi harajatlarga olib boriladi, o‘rtadagi farq, agar ijobiy bo‘lsa investitsiyalarni kupayishiga, agar salbiy bo‘lsa investitsiyalarni kamayishiga olib boriladi.

Qimmatli qog‘ozlarga yo‘naltirilgan moliyaviy investitsiyalarni qayta baholash usullarini farqini to‘laroq tushunish maqsadida quyidagi misolni ko‘rib chiqamiz.

Aytaylik, aksionerlik jamiyatni quyidagi qimmatli qog‘ozlarga ega:

Korxona	Ak siya soni	Aksianing sotib olish qiymati	Aksiyaning bozor qiymati	Sotib olish qiymati summasi	Bozor qiymati summasi	Bozor qiymatini oshishi va pasayishi
Savdogarbank	10	5000	5200	50000	52000	2000
Savdogarbank	20	6000	5200	120000	104000	-16000
«Suxrob» AJ	100	1000	800	100000	80000	-20000
«Suxrob» A J	50	1200	800	60000	40000	-20000
Jami				33000	276000	-54000

Ushbu shartli ma’lumotlar asosida qayta baxolangan moliyaviy investitsiyalarning balans qiymati yuqoridagi uchta usullarda quyidagicha bo‘ladi:

Usul	Sotib olish qiymati bo‘yicha	Bozor qiymati bo‘yicha	Sotib olish va bozor qiymatidan eng kichigi bo‘yicha	Farq (=,-)
1- usul	330000	276000	274000	-56000
2-usul	330000	276000	270000	-60000
3-usul	330000	276000	276000	-54000

Ko‘rinib turibdiki, 1-usulda aksionerlik jamiyatining qimmatli qog‘ozlarga yo‘naltirilgan moliyaviy investitsiyalarining sotib olish va bozor qiymatlaridan eng kichigi bo‘yicha qayta baxolangan qiymati 274000 so‘mni tashkil etadi, ya’ni

sotib olish qiymatiga nisbatan ularning qadri 56000 so‘mga tushib ketgan. Hisobot yili oxirida ushbu usul bo‘yicha qimmatli qog‘ozlar qayta baqolanganda, ularning qiymati balansda 274000 so‘m etib belgilanadi va o‘rtadagi farq , ya’ni 56000 so‘mlik zarar, rezerv kapitali hisobidan qoplanadi. Agar rezerv kapitali ushbu maqsad uchun shakllanmagan bo‘lsa, u holda ushbu summa korxona zarariga olib boriladi.

Agar korxona qimmatli qog‘ozlarni qayta baholashning ikkinchi usulini tanlagan bo‘lsa, u holda qimmatli qog‘ozlar qadrini pasayishi natijasida 60000 so‘mlik zarar ko‘rilgan bo‘ladi va hisobot yili oxirida ularning balans qiymati 270000 sum miqdorida balansda aks ettiriladi. Ko‘rilgan zarar, xuddi 1-usuldagidek, rezerv kapitali hisobidan qoplanadi yoki korxona zarariga olib boriladi.

Agar korxona qimmatli qog‘ozlarni qayta baholashning 3- usulini qo‘llayotgan bo‘lsa, u holda hisobot yili oxiriga qimmatli qog‘ozlarning qiymati 330000 so‘mdan 276000 so‘mga tushiriladi, o‘rtadagi farq , ya’ni 54000 so‘m, rezerv kapitali hisobidan qoplanadi yoki bunday rezerv kapitali bo‘lmasa korxona zarariga olib boriladi.

Qarz va kredit sifatida kiritilgan investitsiyalarni baholash ularning berish sanasidagi hisob qiymati bo‘yicha amalga oshiriladi. Hisob qiymati investitsiyaga kiritilgan aktivning turiga bog‘liq bo‘ladi.

Jumladan, qisqa va uzoq muddatga investitsiyaga kiritilgan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar balansda ularning boshlang‘ich qiymati bo‘yicha baholanadi. Bu aktivlarni boshlang‘ich qiymatdan yuqori baholanib investitsiyaga kiritilishi korxonaga qo‘srimcha daromad keltirishi mumkin va aksincha, past qilib kiritilishi korxonaga zarar keltirishi mumkin. Lekinda har ikkala holda ham investitsyaning balans qiymati ushbu aktivlar bo‘yicha boshlang‘ich qiymatga teng bo‘lishi zarur. Investitsiya muddati tugagach bu turdagи aktivlar boshlang‘ich qiymatida mos schyotlar tarkibiga tiklanadi.

Qarz va kredit sifatida investitsiyaga kiritilgan tovar-moddiy zahiralar ularning balans qiymatida, ya’ni tannarxi bo‘yicha balansda aks etishi lozim.

Ushbu qiymatdan chetlanish (past yoki yuqori) korxonaga , xuddi uzoq muddatli aktivlar singari, mos ravishda zarar yeki qo'shimcha daromad keltiradi. Moddiy zahiralarni qaytarilishi ham mos schetlarga balans qiymatida, ya'ni tannarxi bo'yicha tiklanadi.

Pul mablag'larini qarz va kredit sifatida investitsiyaga kiritilishi ularning berilgan summadagi miqdorida baholanadi va o'sha miqdorda qaytarilgach mos schetlarga tiklanadi.

Qarz va kredit shartnomasiga muvofiq qarz va kredit sifatida kiritilgan investitsiyalar qayta baholanishi ham mumkin. Qayta baholash investitsiyaga kiritilgan asosiy vositalar va moddiy aktivlarning boshlang'ich qiymatlari hukumat qarorlari yoki korxonaning mulkini boshqa mulk shakliga aylanishi munosabati bilan mutassadi tashkilot qarori bilan o'zgartirilganda amalga oshiriladi. Bunday holda investor investitsiyaga kiritgan uzoq muddatli aktivlarining balans qiymatini o'zgartiradi va o'sha qiymatda keyingi sanalarda ularni balansda aks ettiradi. Qayta baholash tovar-moddiy zahiralarga ham taalluqli bo'lib, ularning balans qiymatini o'zgarishi investitsiya qiymatini ham o'zgarishiga olib keladi. Qarz va kredit sifatida investitsiyaga kiritilgan aktivlarning qayta baholanishi shartnoma shartlariga muvofiq investorning oladigan daromadiga ta'sir qilishi ham, ta'sir qilmasligi ham mumkin.

Aktivlarni qarz va kredit sifatida investitsiyaga kirituvchi korxonalar o'zlarining hisob siyosatlarida baholash va qayta baholash tartiblarini , ularni korxona daromad va harajatlariga ta'sirini , shuningdek qayta baholash natijalarini schetlarda aks ettirish usullarini ochib berishlari lozim.

Ta'sis badali sifatida kiritilgan investitsiyalarni baholash qarz va kredit sifatida kiritilgan investitsiyalarni yuqorida keltirilgan tartibiga to'liq o'xshashdir.

Ta'sis badali sifatida kiritilgan investitsiyalarning qayta baholanishi , ma'lumki ta'sis badali summasini oshishiga va bu o'z navbatida undan olinadigan ta'sischilarning foydasi hissasini o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ta'sis badali sifatida kiritilgan investitsiyalarning qayta

baholangan qiymati davlat registratsiyasidan qayta o‘tishi lozim va faqat shu asosda tan olinishi, shuningdek balansda aks ettirilishi lozim.

Ishlab chiqarish zahiralarini baholash. Ishlab chiqarish zaxiralari 4-sod BHMS «Tovar- moddiy zaxiralarga muvofiq ularning tannarxi yoki sotilishini sof qiymatidan biri bo‘yicha eng kichigini tanlash yo‘li bilan baholanadi.

Ishlab chiqarish zaxiralarining tannarxi - bu ularni sotib olishga yoki ishlab chiqarishga ketgan barcha harajatlar majmuasi.

Sotib olingan ishlab chiqarish zaxiralarining tannarxi ularni sotib olish qiymati, bojxona yig‘im va to‘lovlari, sertifikatsiya harajatlari, komissiya to‘lovi, transport-tayyorlov va boshqa sotib olishda ketgan harajatlarni o‘z ichiga oladi. Qo‘shilgan qiymat solig‘ini (QQS) to‘lovchi hisoblanmagan korxonalarda ishlab chiqarish zaxiralarini sotib olishda ta’minotchilarga to‘langan QQS ham ularning tannarxiga kiritiladi. QQS ni to‘lovchi korxonalarda zaxiralarini sotib olishda to‘langan QQS summasi byudjetga ushbu soliq bo‘yicha qarzdan chegiriladi (zachetga olinadi).

Ishlab chiqarilgan zaxiralarining tannarxi –bu o‘z kuchi bilan ishlab chiqarilgan materiallar va boshqa zaxiralarga ketgan bevosita va bilvosita moddiy, mehnat va boshqa ustama harajatlar majmuasi.

Sotishning sof qiymati –bu ishlab chiqarish zaxirasining tannarxidan kichik qiymati bo‘lib, faqatgina ularni keragidan ko‘p miqdorda yig‘ilib qolganida bahoni pasaytirish hollarida vujudga keladi. Bunday holda ishlab chiqarish zaxiralarini pasaytirilgan baholarda, ya’ni sotishning sof qiymatida balansda aks ettiriladi.

Ishlab chiqarish zaxiralarini qiymati 4- son BHMS ga muvofiq (p. 16-18) quyidagi usullarning birida baholanadi:

•**FIFO** –zaxiralarini kelib tushish vaqtidagi bahosida chiqim qilish, ya’ni birinchi tushum, birinchi chiqim .Ushbu usulda oldin kelgan zaxira oldin sarflanadi va ishlab chiqarish tannarxiga kelib tushgan bahosida kiritiladi, ushbu zaxira tugagach, keyingi tushgan zaxira tushgandagi bahosida sarflanadi va ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladi. Ushbu usulning harakterli xususiyati shundaki, hisobot davri oxirida korxonada faqatgina oxirgi navbatda va baholarda kelib

tushgan zaxiralar qoladi. Keyingi oyda qolgan zaxiraning chiqimi birinchi navbatda kelib tushgan bahosida ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladi. Masalan, «A» material 5 yanvarda 1000 dona 100 sumdan jami 100000 sumga, 15 yanvarda 2000 dona 150 sumdan 300000 sumga, 20 yanvarda 1000 dona 200 sumdan 200000 sumga kelib tushdi. Aytaylik, yanvarda jami materiallardan 3500 donasi ishlab chiqarishga sarflandi. Ishlab chiqarish tannarxiga kiritilgan zaxiralarning qiymati ushbu usulda jami 500000 sumni tashkil etadi. Oy oxirida omborda 20 yanvarda kelib tushgan va ishlatilmay qolgan 500 dona material 200 sumdan jami 100000 sumga zaxira bo‘lib qoladi. Keyingi oyda ushbu materialni ishlab chiqarishga sarflanishi aynan shu bahoda, ya’ni 200 sumdan chiqim qilinadi.

• **AVEKO**- bu zaxiralar qiymatini o‘rtacha narxlardagi baholar bo‘yicha hisobdan chiqarish usuli. Yuqoridagi misolimizda kelib tushgan bir dona materialning o‘rtacha qiymati 150 so‘mni ($600000/4000$) , ishlab chiqarishga sarflangan materialning qiymati 525000 sumni ($3500*150$) va oy oxirida qolgan materiallar qiymati 75000 so‘mni ($500*150$) tashkil etadi.

• **LIFO**- bu zaxiralarni oxirgi tushum bahosidan boshlab hisobdan chiqarish usuli. Yuqoridagi misolda ishlab chiqarishga sarflangan materiallar qiymati 550000 sumni ($1000*200+2000*150+500*100$), oy ixirida qolgan materiallar qiymati -50000 sumni ($500*100$) tashkil etadi. Baholarni o‘sib borishi yuz berayotgan sharoitda ushbu usul dastlab tannarxni oshishiga, keyinchalik esa kamayishiga, oy oxirida eski narxlardagi materiallarni omborlarda qolib ketishiga olib keladi. Shuning uchun materiallarni ko‘p martalab qayta baholash zaruriyat tug‘iladi.

Zaxiralarning yuqorida keltirilgan usullari ishlab chiqarilgan mahsulotlarni tannarxiga va ularning qoldiq qiymatiga turlicha ta’sir ko‘rsatadi. Chunonchi, eng kichik tannarx va eng katta zaxiralar qoldig‘i FIFOda, eng katta tannarx va eng kichik zaxiralar qoldig‘i LIFO da yuz beradi. Bizning misolimizda, jumladan bu quyidagicha:

KO'RSATKICH LAR	FIFO	AVEKO	LIFO
Tannarx	500000	525000	550000
Zaxira qoldig'i	100000	75000	50000

Ishlab chiqarish zaxiralari qiymatini baholash usullari tannarx orqali foydaga, u orqali esa foydadan(daromaddan) olinadigan soliqlarga ham turlichayta ta'sir ko'rsatadi. Misol uchun zaxiralardan 3500 donasi 250 sumdan sotildi deylik. Bunda korxonaning sotishdan olgan foydasi va foydadan olinadigan soliqlar (davr harajatlari , soliq bazasiga qayta qo'shiladigan harajatlar va imtiyozlar hisobga olinmagan shartli ravishda) quyidagicha bo'ladi.

KO'RSATKICHLAR	FIFO	AVEKO	LIFO
Sof tushum	875000	875000	875000
Tannarx	500000	525000	550000
Foya	375000	350000	325000
Foyda solig'i, 20%	75000	70000	65000
Infrastrukturani rivojlantirish solig'i, 8%	24000	22400	20800

Misoldan ko'rinish turibdiki, eng katta foydadan olinadigan soliqlar FIFO da, eng kichigi esa LIFO da namoyon bo'ladi.

BXMS №4 ga muvofiq O'zbekiston Respublikasida ko'proq e'tiborli bo'lgan FIFO va AVEKO usullarni qo'llash ko'zda tutilgan, LIFO usulini qo'llash ko'zda tutilmagan.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar ishlab chiqarish zaxiralarining qiymatini baholashning yuqorida keltirilgan FIFO va AVEKO usullaridan birini tanlab olishlari va uni o'zlarining hisob siyosatlarida ko'rsatishlari kerak. Bir vaqtning o'zida ikki usulni qo'llash ta'qiqlanadi. Bir usuldan ikkinchisiga asos bo'lganda o'tish mumkin va bu to'g'rida hisob siyosatiga kiritilgan o'zgaritirishlar tegishli organlarga yetkazilishi kerak.

Tayyor mahsulot deganda *ishlab chiqarishning barcha texnologik jarayonlaridan o'tgan, ortiq qayta ishloymi talab qilmaydigan, o'zining sifati bo'yicha davlat standartlariga, texnik shartlarga javob beradigan va omborxonalarga qabul qilingan tayyor buyumlar tushuniladi.*

Korxonaning faoliyat turiga qarab u ishlab chiqargan tayyor mahsulotlar turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, mashinasozlik zavodining tayyor mahsuloti bo'lib yengil yoki yuk tashish avtomobilari, non kombinatining tayyor mahsuloti bo'lib – non va non mahsulotlari, qishloq xo'jalik korxonasining tayyor mahsuloti bo'lib yetishtirilgan meva-sabzavotlar va boshqa mahsulotlar hisoblanadi.

Tayyor mahsulotlar korxonada olib borilgan ishlab chiqarish jarayonining pirovard natijasi hisoblanadi. Ularni tayyorlashga ketgan harajatlar korxonaning ishlab chiqarish harajatlarini, shuningdek tayyor mahsulotning tannarxini tashkil qiladi.

Tayyor mahsulotlar korxonalarining aylanma aktivlarining muhim turi hisoblanadi. Ularning aylanish tezligi talab va taklifga, sifatiga, ishlab chiqarilgan hajmiga, bahosiga va boshqa omillarga bog'liq bo'ladi. O'z navbatida tayyor mahsulotlarning haridorligiga sotish hajmi, pul tushumlari, daromad va boshqa ko'rsatkichlar bevosita bog'liqdir. Shuning uchun ham tayyor mahsulotlar buxgalteriya hisobining muhim ob'ektlaridan biri hisoblanadi.

4-son BXMS ga muvofiq tayyor mahsulotlar quyidagi baholarda hisobga olinadi:

- Ishlab chiqarishdan olinganda – haqiqiy tannarxi bo'yicha;
- Ta'sischilardan olinganda – kelishuv bahosida;
- Qaytarib bermaslik sharti bilan bepul kelib tushganda – ekspert yo'li bilan aniqlangan qiymatda;
- Bahosini real aniqlash qiyin bo'lgan buyumlar bo'yicha- rejali (normativ) bahoda.
- Haridorgirligini yo'qotgan, sifati past yoki shikastlangan hollarda- sof sotish qiymatida (tannarxdan past bo'lgan qiymatda).

Tayyor mahsulotlar qiymatini baholash xuddi ishlab chiqarish zahiralari kabi korxona hisob siyosatida belgilangan FIFO yoki AVEKO usullardan birida amalga oshirilishi mukin.

Mahsulot tannarxi ishlab chiqarish harajatlarini hisobga olish va tannarxni kalkulyatsiya qilish yo‘li bilan topiladi. Kalkulyatsiya, odatda bir xil nomdag'i mahsulotga (ish yoki xizmat turiga) tuziladi. Amaliyotda normativ (rejali) kalkulyatsiya, haqiqiy tannarx kalkulyatsiyasi kabi kalkulyatsiyaning turlari keng ishlatiladi.

Normativ (rejali) kalkulyatsiyada qabul qilingan mahsulot (ish, xizmat) birligining tannarxi maxsus tasdiqlangan resepturalar asosida sarflanadigan harajatlar summasini ishlab chiqarishga mo‘ljallangan mahsulot(ish, xizmat)ning soniga bo‘lish yo‘li bilan topiladi. Masalan, 100 porsiya palov (250 grammlik) tayyorlash uchun resepturada quyidagi harajatlar ko‘zda tutilgan deylik: go‘sht –6 kg, guruch –25 kg, yog‘ –8 kg, sabzi –20 kg, piyozi –3 kg, tuz va zirovarlar - 1 porsiyaga 5 so‘m miqdorida. Ishlatiladigan masalliqlar bozordan sotib olinadi. Ushbu shartli ma’lumotlarga ko‘ra 1 porsiya palovning normativ(rejali) tannarxini kalkulyatsiyasi quyidagicha bo‘ladi.

1 porsiya palovning normativ (rejali) tannarxini kalkulyatsiyasi

100 porsiya palovga ketadigan harajatlar	Summa
1. Go‘sht 6 kg *2200 so‘m	13200
2. Guruch 20 kg *500 so‘m	10000
3. Yog‘ 8 kg *1100 so‘m	8800
4. Sabzi 20 kg*250 so‘m	5000
5. Piyozi 3 kg *150 so‘m	450
6. Tuz va zirovorlar	500
7. Jami harajatlar	40950
<i>1 porsiya palovning o‘rtacha normativ tannarxi</i>	409-50

Normativ(rejali) kalkulyatsiya asosida hisoblangan mahsulot tannarxi hisobot davri ichida hisob bahosi sifatida qo‘llaniladi. Chunki hisobot davri tugamaguncha mahsulotni ishlab chiqarishga ketgan barcha ishlab chiqarish harajatlarini to‘liq aniqlab bo‘lmaydi,demak mahsulotning haqiqiy ishlab chiqarish tannarxini ham hisoblab bo‘lmaydi.

Mahsulot (ish, xizmat)ning haqiqiy tannarxini kalkulyatsiya qilish uchun hisobot davri oxirida ushbu mahsulot (ish, xizmat) uchun haqiqatda qilingan harajatlar summasi hisob registrlaridan olinadi, masalan bosh kitobdan. Jami harajat summasi ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat) ning umumiy soniga bo‘linadi va shu yo‘l bilan bir birlik mahsulot (ish, xizmat)ga to‘g‘ri keladigan tannarx summasi hisoblanadi. Misol uchun, fabrikada 1 kilogramm choyni qadoqlashning normativ (rejadagi) ishlab chiqarish tannarxi kalkulyatsiyaga muvofiq – 1200 so‘m, mart oyida 20 tonna choy qadoqlangan va jami ketgan ishlab chiqarish harajatlari bosh kitob bo‘yicha 25000000 so‘m, unda 1 kilogramm qadoqlangan choyning haqiqiy tannarxi 1250 so‘m bo‘ladi ($25000000 / 20000$ kg),, aprel oyida 25 tonna choy qadoqlangan va jami ketgan ishlab chiqarish harajatlari bosh kitob bo‘yicha 30000000 so‘m, unda 1 kilogramm qadoqlangan choyning haqiqiy tannarxi 1200 so‘mni tashkil etadi.

Agar korxonada hisobot davri davomida tayyor mahsulotlarning harakati rejali hisob baholarida hisobga olib borilgan bo‘lsa, u taqdirda hisobot davri oxirida haqiqiy tannarx va hisob bahosi o‘rtasidagi farq aniqlanadi va ushbu summaga tuzatish yozuvlari qilinadi. Ushbu yozuvlar to‘g‘risida keyinroq to‘xtalib o‘tamiz.

Tannarxni kalkulyatsiyasi asosida mahsulot (ish, xizmat)ning sotish bahosi ham kalkulyatsiya qilinadi. Sotish bahosini kalkulyatsiyasining tannarxning kalkulyatsiyasidan farqi shundaki, unda sotishda tannarx ustiga qo‘yiladigan qo‘srimcha qiymatlar hisobga olinadi. Bunday qiymatlar bo‘lib, jumladan korxonaning rentabellik darajasi bo‘yicha oladigan foydasining summasi, aksiz solig‘i, qo‘silgan qiymat solig‘i, savdo ustamasi, ovqatlanish korxonasing ustamasi hisoblanadi. Misol uchun, aroq ishlab chiqaruvchi zavodda bir shisha aroq ni (sig‘imi 0,5 litr) sotish bahosi kalkulyatsiyasi taxminan quyidagicha bo‘ladi.

Sotish bahosi kalkulyatsiyasi (zavodda)

Baho elementlari	Summa, so‘mda
1. Bir shisha aroqning o‘rtacha ishlab chiqarish tannarxi	90
2. Korxona foydasi 20%	18
3. Korxonaning sof sotish bahosi	108
4. Aksiz solig‘i 82% (aksiz bilan birlgilidagi sotish bahosidan. Bu baho topiladi $108 * 100 / 100 - 82 = 600$ sum	492
5. Sotish bahosi aksiz solig‘i bilan	600
6. Qo‘shilgan qiymat solig‘i 20%	120
7. Korxonaning sotish bahosi	720

Bir shisha aroqning chakana savdo magazinida sotilishi vaqtida sotib olish bahosi ustiga savdo ustamasi qo‘yiladi. Bu holda bir shisha aroqning sotish bahosining kalkulyatsiyasi quyidagicha bo‘ladi.

Sotish bahosi kalkulyatsiyasi (magazinda)

Baho elementlari	Summa, so‘mda
1. Bir shisha aroqning sotib olish bahosi	720
2. Savdo ustamasi 20%	144
3. Tovarni chakana sotish bahosi	864

Ovqatlanish korxonalarida kelib tushgan tovarlar ustiga savdo ustamasidan tashqari ovqatlanish korxonasining ko‘rsatgan xizmatlari uchun ham qo‘shimcha ustama qo‘yiladi. Bu holda, masalan, restoranda, bir shisha aroqning sotish bahosining kalkulyatsiyasi quyidagicha bo‘ladi.

Sotish bahosi kalkulyatsiyasi (restoranda)

Baho elementlari	Summa, so‘mda
1. Bir shisha aroqning sotib olish bahosi	720
2. Savdo ustamasi 20%	144
3. Tovarni chakana sotish bahosi	864
4. Restoran xizmati ustamasi 30%	259
5. Aroqning restoran menyusidagi bahosi	1123

Tayyor mahsulotlar hisobining vazifalari. Tayyor mahsulotlar bo‘yicha buxgalteriya hisobining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- Tayyor mahsulotlarni ularning mohiyatini ochib beruvchi mezonlariga mos ravishda hisobga olish;

- Tayyor mahsulotlarni to‘g‘ri turkumlash va guruhlarga ajratish;
- Tayyor mahsulotni to‘g‘ri baholash;
- Tayyor mahsulotla holati va harakatini to‘g‘ri, o‘z vaqtida va tegishli boshlang‘ich hujjatlar bilan rasmiylashtirish;
- Tayyor mahsulotlarga moddiy javobgarlikni ta’minalash, moddiy javobgar shaxslar tomonidan hisobotlarni to‘g‘ri va o‘z vaqtida tuzilishi, taqdim etilishini nazorat qilish;
- Tayyor mahsulotlarning butligini ta’minalash, buning uchun ularni belgilangan muddatlarda qayta ro‘yxatdan o‘tqazish (inventarizatsiya qilish), uning natijalarini to‘g‘ri aniqlash va hisobga olish;
- Tayyor mahsulotlarni o‘z vaqtida sotilishi, chunonchi tannarxdan past baholarda sotilmasligi, omborlarda me’yordan ortiq zahiralarni to‘planib qolinishiga yo‘l qo‘ymaslik ustidan nazorat o‘rnatish;
- Tayyor mahsulotlarni asosli ravishda qayta baholash va uning natijalarini hisobda to‘g‘ri aks ettirish va boshqalar.

Tayyor mahsulotlarni saqlanish joylaridagi hisobi. Korxona omborxonasiga tayyor mahsulotlar asosan ishlab chiqarish bo‘linmalaridan (sexlardan), shuningdek ayrim hollarda chetdan ta’sischilarining badali sifatida, qaytarib bermaslik shartlari bilan bepul olingan buyumlar sifatida qabul qilinadi. Kirim qilish naklodnoylar, dalolatnomalar, schyot-fakturalar, zabor varaqalari asosida amalga oshiriladi. Qabul qilingan tayyor mahsulotlarning soniy-summoviy hisobi uchun ularning har biriga kartochkalar ochiladi yoki umumiylar hisobi kitobi yuritiladi. Tayyor mahsulotlarning omborxonadan sotilishi va boshqa chiqimlari faqat rahbariyatning ruxsatnomasi orqali amalga oshiriladi. Chiqim operatsiyalari schyot-fakturalar, nakladnoylar, dalolatnomalar, talabnomalar, zabor varaqalari va boshqa hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi. Hisob siyosatida belgilangan muddatlarda ombor mudirlari tayyor mahsulotlar holati va harakatini soniy va summoviy ko‘rinishda ifodalovchi hisobotlarni tuzadilar va ularni buxgalteriyaga topshiradilar. Hisobotlar va ularga ilova qilingan boshlang‘ich

hujjatlar tayyor mahsulotlarning sintetik va analitik hisobini yuritishga asos bo‘lib hisoblanadi.

Tayyor mahsulotlarning sintetik va analitik hisobi. Tayyor mahsulotlarni hisobga olish uchun 21-son BHMS da quyidagi schyotlar tizimi ko‘zda tutilgan:

- **2810** “Ombordagi tayyor mahsulotlar”
- **2820** “Ko‘rgazmadagi tayyor mahsulotlar”
- **2830** “Komissiyaga berilgan tayyor mahsulotlar”

Ushbu schyotlar aktiv schyotlardir, ularning debetida tayyor mahsulotlarning qoldig‘i, kelib tushish natijasida ko‘payishi, kreditida esa – kamayishi aks ettiriladi.

Korxona omboriga kirim qilingan barcha tayyor mahsulotlar 2810 “Ombordagi tayyor mahsulotlar” schyotining debetida va boshqa tayyor mahsulotlarni qaysi manbalardan kelib tushganligini ko‘rsatuvchi schyotlarning kreditida aks ettiriladi, jumladan:

- **Kredit** 2010 “Asosiy ishlab chiqarish” – asosiy ishlab chiqarishdan olingan tayyor mahsulotlarning tannarx bo‘yicha qiymatiga;
- **Kredit** 2310 “Yordamchi ishlab chiqarish” – yordamchi ishlab chiqarishdan olingan tayyor mahsulotlarning tannarx bo‘yicha qiymatiga;
- **Kredit** 4610 “Ustav kapitaliga badallar bo‘yicha ta’sischilarning qarzi” – ta’sischilardan ta’sis badali sifatida olingan tayyor mahsulotlarning qiymatiga;
- **Kredit** 9380 “Qaytarilmaydigan moliyaviy yordam” – boshqa shaxslardan qaytarilmaydigan moliyaviy yordam sifatida olingan tayyor mahsulotlarning qiymatiga;
- **Kredit** 1010 “Materiallar” - tayyor mahsulot tarkibiga kiritilgan materiallar qiymatiga;
- **Kredit** 2810,2820,2830 – tayyor mahsulotlarning ichki almashuviga
- **Kredit** 9390 “ Boshqa operatsion daromadlar” – inventarizatsiyada aniqlangan ortiqchalar summasiga va boshqalar.

Tayyor mahsulotlarning sotilishi buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

1. Haridorlarga taqdim etilgan schyot-fakturalar bo‘yicha tayyor mahsulotning QQS siz bo‘lgan sotish bahosidagi qiymatiga

Debet 4010 “Haridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar”

Kredit 9010 “Tayyor mahsulotlarni sotishdan olingan daromadlar”

2. Sotilgan tayyor mahsulotlarga to‘g‘ri keladigan QQS summasiga

Debet 4010 “Haridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar”

Kredit 6410 “Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzlar”

3. Haridorlar bilan sotilgan tayyor mahsulotlar bo‘yicha hisob-kitob qilinganda:

- Olingan avans summasiga

Debet 5010 “Kassa”, 5110 “Hisob-kitob schyoti”, 5210 “Valyuta schyoti”

Kredit 6310 “Haridor va buyurtmachilardan olingan avanslar”

- Olingan avans summasini mahsulot sotilgan so‘ng yopilishiga

Debet 6310 “Haridor va buyurtmachilardan olingan avanslar”

Kredit 4010 Haridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar”

- Oxirgi debtorlik qarzni olinishiga

Debet 5010 “Kassa”, 5110 “Hisob-kitob schyoti”, 5210 “Valyuta schyoti”

Kredit 4010 Haridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar”

4. Sotilgan tayyor mahsulotlarning haqiqiy tannarini har bir schyot-faktura bo‘yicha aniqlab bo‘lmaydi. Shuning uchun sotilgan mahsulotlarning tannarxini topish maqsadida hisobot davri oxirida tayyor mahsulotlar holati va harakati bo‘yicha balans tuziladi. Ushbu balans quyidagicha tuziladi.

Tayyor mahsulot bo'yicha balans

Ko'rsatkichlar	Tannarxi bo'yicha	Sotish bahosi bo'yicha	Farqi (+,-)
1. Davr boshiga qoldiq	2000000	2580000	258000
2. Ishlab chiqarishdan olingan mahsulot	10000000	13400000	3400000
3. Qayta baholash summasi		500000	500000
4.Jami sotishga tayyor mahsulot (1 + 2 + 3)	12000000	14158000	2158000
5. 1 so'mlik mahsulotga to'g'ri keladigan harajat	X	0,8475	
6. Sotilgan tayyor mahsulot	9322500	11000000	1677500
7.Davr oxiridagi qoldiq	2677500	3158000	480500

Sotilgan mahsulotlarning tannarxini topish uchun balansda ularning holati va harakati to'g'risidagi ma'lumotlar haqiqiy ishlab chiqarish tannarxi va sotish baholarida alohida ustunchalarda ko'rsatiladi. Jami sotishga tayyor mahsulotlarga ketgan barcha harajatlarni sotishga tayyor jami mahsulotlarni sotish bahosiga (QQS siz) bo'lish yo'li bilan 1 so'mlik sotishga tayyor mahsulotga to'g'ri keladigan o'rtacha tannarx aniqlanadi. Topilgan o'rtacha tannarx sotilgan tayyor mahsulotlarning sotish bahosidagi (QQS siz) qiymatiga ko'paytiriladi, chiqgan summa jami sotilgan tayyor mahsulotning tannarxini bildiradi. Yuqorida keltirilgan shartli misolda 1 so'mlik sotishga tayyor mahsulotga to'g'ri keladigan o'rtacha tannarxi 0,85 so'mni tashkil qilgan. Jami sotilgan tayyor mahsulotning tannarxi – 9322500 so'm (11000000 x 0,85). Ushbu summaga hisobot davri oxirida quyidagi buxgalteriya yozuvi qilinadi:

Debet 9110 “Sotilgan tayyor mahsulotning tannarxi”

Kredit 2810 “Ombordagi tayyor mahsulotlar”

5.Tayyor mahsulotlarni sotishdan olingan foydani topish uchun 9010-schyotda aks ettirilgan daromad № 9910 “Oxirgi moliyaviy natija” schyotining kreditiga, 9110- schyotda aks ettirilgan sotishning tannarxi № 9910 “Oxirgi moliyaviy natija” schyotining debetiga o'tqaziladi, oxirgi schyotning kredit va debet oborotlari o'rtasidagi ijobiy farq (boshqa yozuvlarsiz) sotishdan olingan foydani ifodalaydi. Yuqoridagi shartli misolda sotishdan olingan foya summasi 1677500 so'mni tashkil etgan.

Tayyor mahsulotlar sotilgan deb hisoblanadi, agarda ular haridorlardan tashqari o‘z xodimlariga mehnat haqi evaziga berilgan bo‘lsa, ta’sis badali sifatida boshqa korxonaga investitsiya qilingan bo‘lsa, xo‘jalik zaruriyathlariga ishlatilgan bo‘lsa ham. Bunday hollarda yuqorida keltirilgan yozuvlarda 4010 –schyotning o‘rniga 0600 “Moliyaviy investitsiyalar”, “1000 “Materiallar” 6700 “Xodimlar bilan ish haqi bo‘yicha hisob-kitoblar”, 9430 “Boshqa operatsion harajatlar” kabi schyotlar debetlanadi.

2810 “Ombordagi tayyor mahsulotlar” schyotining kreditida tayyor mahsulotlar zahiralarining boshqa chiqimlari ham aks ettiriladi, jumladan:

- *Ular asosiy va yordamchi ishlab chiqarishga qayta sarflanganda*
Debet 2010 “Asosiy ishlab chiqarish”, 2310 “Yordamchi ishlab chiqarish”
Kredit 2810 “Ombordagi tayyor mahsulotlar”
- *Ular korxonaning magaziniga berilganda*
Debet 2920 “Chakana savdodagi tovarlar”
Kredit 2810 “Ombordagi tayyor mahsulotlar”
- *Brak mahsulot deb tan olinganda*
Debet 2600 “Ishlab chiqarishdagi braklar”
Kredit 2810 “Ombordagi tayyor mahsulotlar”
- *Kamomadlar aniqlanganda*
Debet 5910 “Boyliklarni buzilishidan ko‘rilgan kamomad va yo‘qotishlar”
Kredit 2810 “Ombordagi tayyor mahsulotlar”
- *Ko‘rgazma zallariga berilganda*
Debet 2820 «Ko‘rgazmadagi tayyor mahsulotlar»
Kredit 2810 “Ombordagi tayyor mahsulotlar”
- *Komissiyaga berilganda*
Debet 2830 «Komissiyaga berilgan tayyor mahsulotlar»
Kredit 2810 «Ombordagi tayyor mahsulotlar»

Tayyor mahsulotlarning analitik hisobi moddiy javobgar shaxslar bo‘yicha, mahsulotlarning turlari bo‘yicha olib boriladi.

1.2.Buxgalteriya fanlarini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari

Hozirgi davrda ta'lif muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalari yanada mustahkamlanib, o'quv-tarbiya jarayoni yangi o'quv-uslubiy majburiyatlar, innovatsion texnologiyalar bilan to'liq ta'minlandi. Kasb-hunar ta'limi muassasalarining mustaqil faoliyat yuritishi va o'zini-o'zi boshqarish shakllari mustahkamlanmoqda. Ta'lim jarayonini axborotlashtirish, uzlusiz ta'lim tizimi jahon axborot tarmog'iga ulanadigan kompyuter axborot tarmogi bilan to'liq qamrab olindi.

«Pedagogik texnologiya» tushunchasi juda keng ma'noni qamrab oladi, unga berilgan ta'riflar ham rangbarang. «Texnologiya» tushunchasi fanga 1872 yilda kirib keldi. U yunoncha-«texnos» - hunar, san'at va «logos» - fan so'zlaridan tashkil topib, «hunar fani» ma'nosini anglatadi. Bu ma'noni ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbiq etib:

“Pedagogik texnologiyaning o'qituvchi (tarbiyachi) tomonidan o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilab olingan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayoni”. - desa bo'ladi.

Pedagogik texnologiya amaliyotga joriy etish mumkin bo'lgan ma'lum pedagogik tizimning loyihasi bo'lib hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya - ta'lim texnologiyasi, yangi pedagogik tajriba, yangi pedagogik texnologiya, axborot texnologiyasi, yangi tajriba, novator o'qituvchilar tajribasi, ta'lim metodlari, tarbiya metodlari kabi tushunchalarni qamrab oladi. Pedagogik texnologiya ta'lim jarayonida oldinga qo'yilgan maqsadga erishishning yo'li bo'lib hisoblanadi.

Demak, pedagogik texnologiya didaktik vazifalarni samarali amalga oshirish, shu sohadagi maqsadga erishish yo'li ekan.

Pedagogik texnologiya va o'qitish texnologiyasi o'zaro bog'liq bo'lishi bilan birga farq qiluvchi tomonlari ham mavjud.

Pedagogik texnologiya - bu ta'lim-tarbiya jarayonining hamma sohalarini qamrab oluvchi yaxlit tizim bo'lsa, o'qitish texnologiyasi - ma'lum fanlarni hozirgi didaktik talablar asosida o'qitishning yaxlit tizimini tashkil qiladi.

Ularning o'zaro bog'liqligi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida ishlab chiqilgan va Davlat ta'lim standartlarida o'z ifodasini topgan:

1.Yangi pedagogik texnologiyaning metodik asoslari Davlat ta'lim standartlari bo'lib hisoblanadi. Davlat ta'lim standartlarida talaba egallah lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalar mezoni belgilab berilgan. Undan past bo'lmasligi kerak.

2.Pedagogik texnologiya va o'qitish texnologiyalarining maqsadi bitta: ijodiy tafakkur va iqtisodiy tafakkur sohibini shakllantirishdan iborat. Bu maqsad Davlat ta'lim standartlarining bosh talabidir.

Ta'lim jarayonidagi har bir texnologiya, berilgan topshiriqlar o'quvchini ijodiy fikrlashga va ijodiy rivojlanishga olib kelsin. Shunday vaziyat yaratish kerakki, o'quvchi - talaba o'z xohishi bilan izlansin, tafakkurini rivojlantirsin, intilsin, unda fanni egallahga qiziqish uygonsin.

3. Har bir mashg'ulotda beriladigan topshiriqlar berilgan vaqtning 20-25%ni, o'quvchining ijodiy tafakkur asosida ish olib borishi 70-80% vaqt oralig'ida bo'lsin. O'quvchi ko'proq amaliy bilimlarni egallasin va undan nazariy xulosalar chiqara olsin.

4.O'qitish texnologiyasida bilim berish, bilim olish usulini tanlash va o'rGANISHGA katta ahamiyat berish, bilim olish, baxs asosida amalga oshishini ta'minlash.

5. O'qitish usuli-texnologiyasi - yangi pedagogik texnologiyalarning asosi bo'lib hisoblanadi.

6.Ta'lim jarayonida darslarni seminar, o'yin, disput, KVN va har xil teatrlashgan vaziyatlar asosida tashkil etish yoki ta'limda differentsiyalashni amalga oshirish lozim.

7. Ta’lim jarayoni tayanch bilimlarini amaliyotga tadbiq etib, rivojlantirib borish, tizimli asosda bo’lishi yangi pedagogik texnologiya va o’qitish texnologiyalarining uzviyligini ta’minlovchi - lokal (bitta yo’nalish) holatning samara berishiga olib keladi.

Hozirgi ilmiy-texnik taraqqiyot asrida ta’limni texnologiyalashtirish oldiga bir qancha vazifalar qo’yiladi. Unda har bir dars ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadni amalga oshiradi.

O’quv jarayonida: motivatsiya, bilish faoliyati, boshqarish faoliyatining o’ziga xos texnologik vazifalari mavjud:

1. Motivatsiya - o’quvchilar diqqatini tortish, ichki tuyg’u-istak zaruratini shakllantirish, o’quv jarayonida asosiy harakatlantiruvchi kuch - o’quvchi va o’qituvchi uchun ham ichki motivatsiya bo’lishi kerak.

2. Bilish faoliyatida quyidagilarga e’tibor berish kerak: o’quvchilardagi tashabbuskorlik, mustaqillik, bilimlarni puxta o’zlashtirish, zarur malaka ko’nikmalar hosil qilish, tafakkur rivojiga e’tibor berish.

3. Boshqarish faoliyatining vazifalari shundan iboratki, o’qituvchi berilayotgan bilim, ko’nikma, malakalar tizimi qay darajada egallab borilmoqda. Darsda qo’llanilayotgan texnologiyalarga, pedagogik texnologiya monitoringi (pirovard natijada) orqali baholanadi.

Pedagogik innovatsiya - ta’limga yangiliklarni kiritishdir. Boshqarishda pedagogik innovatsiyaga rioya qilmoq zarur. Bugungi kunda ta’lim sohasida pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish va uni samarali yo’llarni ishlab chiqishga e’tibor qaratilib, kollej, litsey ta’limiga mo’ljallangan pedagogik texnologiyalar va oliy ta’lim tizimiga xos bo’lgan pedagogik texnologiyalarni alohida klassifikatsiyaga ajratilmoqda. Bu esa pedagogik texnologiyalarni turli ta’lim tizimida turlicha yondashuvlar bilan mukammal va tez tushunarli shaklda o’zlashtirilishini ta’minlaydi.

Zamonaviy pedagogik texnologiya o’zining pedagogika va boshqa fan yutuqlari bilan bog’liq xususiy nazariyasiga ega; u birinchi galda o’quv-tarbiyaviy jarayonini ilmiy asosda qurishga yo’naltirilgan, o’qitishning axborotli vositalaridan

va didaktik materiallaridan, faol metodlaridan keng foydalanishga asoslangan o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatiga zamin yaratadi.

Pedagogik texnologiya deyarli yarim asr davomida tadrijiy ravishda rivojlandi va hozirgi darajaga yetdi. Bu davrda o'qitish "og'zaki-audiovizual dasturlash-multimedia-gipermedia" ketma-ketligi bo'lib almashindi.

Pedagogik texnologiyani "ishlab chiqarish" natijasi, "mahsuloti" – ma'lum malakaga ega bo'lgan mutaxassis tayyorlash uchun ilmiy asoslangan didiaktik jarayonni amalga oshirish, ya'ni o'qitish jarayonini qo'yilgan maqsadga ko'ra izchil ketma-ketlikda, turli vosita, metodlarni qo'llash, maqsadni topshiriqlar orqali ifodalash, olingan bilimlarni sinash va baholash orqali samarali ta'lim natijasiga erishishning ishonchlilagini ta'minlovchi pedagogik faoliyat deb ta'riflash mumkin.

Bugungi ta'limda pedagogik texnologiyalarni joriy etishga bir necha sabablari mavjud:

-birinchidan, fan-texnika taraqqiyotini rivojlanishi tufayli axborotlar tizimi, turi, hajmini ko'payib borayotganligi;

-ikkinchidan, o'qituvchi qanchalik bilmli, mahoratli bo'lishiga qaramay, mavzu bo'yicha barcha bilim axborotlarni to'liq qamrab olish imkoniga ega emasligi;

-uchinchidan, texnik vositalar (TV), vidiomagnitofon, kompyuter va boshqa zamona viy texnika va texnologiyalar, jumladan axborot texnologiyasi (AT) yaratilishi ularni ta'lim jarayoniga tadbiq etish, o'quv-tarbiya jarayonida foydalanish imkonini yaratdi.

-to'rtinchidan, bozor iqtisodiyotiga noaniqlik doimiy yo'ldosh, shu bilan birga resurslar cheklangan, ehtiyojlar esa cheksiz. Ular insonni tanlash muammosiga duch qiladi va har bir kishidan har qadamda mustaqil tanlash va qaror qabul qilishni talab etadi. Tayyorlanayotgan kadrlarning raqabatbardoshligini taminlash uchun, ta'limni jadallashtirish va samaradordigini oshirish zarur.

Hozirgi davr ta'lim taraqqiyoti yangi yo'nalish -innovatsion pedagogikani maydonga olib chiqdi. "innovatsion-pedagogika" termini va unga xos bo'lgan tadqiqotlar G'arbiy Yevropa va AQSHda XX asrning 60-yillarida paydo bo'ldi.

Innovatsion faoliyat F.N.Gonolin, S.M. Godnin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuzmina, V.A.Slastenin, A.I.Sherbakov ishlarida tadqiq etilgan. Bu tadqiqtarda innovatsion faoliyat yangilik va ilg'or pedagogik tajribalarni keng yoyish nuqtai nazaridan yoritiladi.

X.Barnet, Dj Basset, D.Gamilton, N.Gross, R.Karlson, M.Mayez, A.Xeyvlok, D.Chen, R. Edem ishlarida innovatsion jarayonlarni boshqarish, ta'limdagi o'zgarishlarni tashkil etish, innovatsiyalarning "hayoti va faoliyati" uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar masalalari tahlil qilingan.

Yangiliklar kiritishning ijtimoiy-pisixalogik aspekti amerikalik innovator E.Rodjers tomonidan chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining toifalari tasnifini, uning yangilikka bo'lgan munosabatini, uni idrok qilishga shayligini tadqiq etadi.

Innovatsiya (inglizcha inovation) -yangilik kiritish, yangilikdir.

A.I.Prigojin innovatsiya deganda, muayyan ijtimoiy birlikka tashkilot, aholi, jamiyat, guruhda yangi nisbatan turg'un unsurlarni kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o'zgarishlarni tushunadi. Bu innovatsiya faoliyatidir.

Tadqiqtchilar (A.I.Priyorin, B.V.Sazonov, V.S.Tolstoy, A.G.Kruglikov, A.S.Axiezer, N.P.Stepanov va boshqalar) innovatsion jarayonlar tarkibiy qismlarini o'rganishning ikki yondashuvini ajratadilar: yangiliklarning individual mikro sathi va alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o'zaro tasirini mikrosathi.

Birinchi yondashuvda, hayotga joriy etilgan qandaydir yangi g'oya yoritiladi. Ikkinci yondashuvda, alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o'zaro tasiri, ularning birligi, raqobati va natijada birining o'rnnini ikkinchisi egallashidir.

Bu konsepsiya yangilik kiritishga nisbatan o'lchanadigan jarayon ekanligidan kelib chiqadi.

«Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsiya jarayonning sxemasi beriladi. U quyidagi bosqichlarni o'z ichiga qamrab oladi:

1. Yangi g'oyaning tug'ilishi yoki yangilik konsepsiyasini paydo qilish bosqichi, u kayfiyat bosqichi deb ham yuritiladi.
2. Ixtiro qilish, ya'ni yangilik yatatish bosqichi.

3. Yaratilgan yangilikni amalda qo'llay bilish bosqichi.
4. Yangilikni yoyish, uni keng tadbiq etish bosqichi.
5. Muayyan sohada yangilikning hukmronlik qilish bosqichi. Bu bosqichda yangilik o'zining yangiligin yo'qotadi, uning samara beradigan muqobili paydo bo'ladi.
6. Yangi muqobillik asosida, almashtirish orqali yangilikning qo'llanish doirasini qisqartirish bosqichi.
7. V.A.Slastenin yangilik kiritishni maqsadga muvofiq yo'naltirilgan yangilik yaratish, keng yoyish va foydalanish jarayoni majmui, uning maqsadi insonlarning ehtiyoji va intilishlarini yangi vositalar bilan qondirish deb biladi»³.

Yangilik kiritishning tizimli konsepsiysi mualliflari (A.I.Priyorin, B.V.Sazonov, V.S.Tolstoy) innovatsion jarayonlarning ikki muhim shaklini farqlaydilar.

Birinchi shaklga, yangilik kiritishning oddiy jarayonlari kiritiladi. Bu ilk bor mahsulot yaratgan tashkilotlarga tegishlidir.

Ikkinci shaklga , yangiliklarni keng ko'lamda ishlab chiqarishga taaluqlidir.

Yangilik kiritish ham ichki mantiq ham vaqtga nisbatan qonuniy rivojlangan va uning atrof muhitga o'zaro ta'sirini ifodalaydigan dinamik tizimdir.

Pedagogik innovatsiyada "yangi" tushunchasi markaziy o'rincutadi.

Ilmiy yo'nalishlarda yangilik va innovatsiya tushunchalari farqlanadi.

Yangilik - bu vosita: yangi metod, metodika, texnologiya va boshqalar.

"Innovatsiya" - bu ta'lim: ma'lum bosqichlar bo'yicha rivojlanadigan jarayon. V.I.Zagvyazinskiy "yangi" tushunchasiga ta'rif berib, pedagogikadagi "yangi" faqatgina bu g'oya emas, balki hali foydalanilmagan yondashuvlar, metodlar, texnologiyalardir, deb ta'rif beradi.

R.N.Yusufbekova pedagogik yangilikka o'qitish va tarbiya berishda avval ma'lum bo'limgan va avval qayd qilinmagan holat, natija, rivojlanib boruvchi

³ Iskandarov E.A., Suyunov O.J. "Pedagogik texnologiyalar" o'quv qo'llanma. Samarqand 2012.

nazariy va amaliyotga eltuvchi pedagogik voqeylikning o'zgarib turishi mumkin bo'limgan mazmuni sifatida qayt qilinadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, pedagogika ilmining tadqiqot obyekti sifatida, aniq fanlarni o'qitish uslubi bo'libgina qolmay, balki ijtimoiy-iqtisodiy fanlarni o'qitishga ham yangicha yondashuv sifatida qayd qilinishi kerak.

Hozirgi kunga kelib, jamiyatimiz jadallik bilan taraqqiy etib, iqtisodiy va siyosiy mavqeい kundan kunga ortib bormoqda. Biroq, ijtimoiy sohada va ayniqsa, ta'lim-tarbiya jarayonida umumiy taroqqiyotdan biroz orqada qolish sezilmoqda. Bunday noxush vaziyatdan chiqib ketish yo'llaridan biri ta'lim-tarbiya jarayonini qabul qilingan davlat standartlari asosida texnologiyalashdir.

Iqtisodiy fanlarni o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali uzluksiz ta'lim samaradorligini oshirishga alohida e'tibor beriliyapti.

II-bob. Kasb-hunar kollejlari o`qitish jarayoniga innovatsion ta`lim texnologiyalarini tatbiq etish amaliyoti tahlili

2.1. Kollej talabalarining iqtisodiy savodxonligini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning takomillashtirish yo'llari

2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishni beshta ustuvor yo`nalishlari bo`yicha Harakatlar Strategiyasining dasturi Respublikamiz hukumati tomonidan ta`limni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor sohasi deb e`lon qilinishi, ijtimoiy hayotning barcha sohalarining demokratlashuvi, insonparvarlashuvi, bugungi kunda ta`lim tizimimizning isloh qilinishiga asos bo`lmoqda .

Shu sababli ham birinchi navbatda ta`lim mazmuni va uning tarkibini kengaytirish va chuqurlashtirish, xususan, bu mazmunga nafaqat bilim, ko`nikma va malaka, balki umuminsoniy madaniyatni tashkil qiluvchi – ijodiy faoliyat tajribasi, tevarak-atrofga munosabatlarni ham kiritish g`oyasi kun tartibiga ko`ndalang qilib qo'yildi.

Kollejda faoliyat ko`rsatayotgan o`qituvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta`lim-tarbiya jarayonini faollashtirish usullari va o`qitiladigan fanlar bo`yicha sifatli bilim, ko`nikma va malakalarni hosil qilishni ta`minlovchi pedagogik usullarni qo'llay bilishi lozim. U zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mohiyati, maqsadi va vazifalarini o`rganib chiqib, ular haqida ilmiy asoslangan ma'lumotlar, amaliy yo'llanmalar ishlab chiqishi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini o`zlashtirganidan so'ng, uni ta`lim tizimiga joriy eta olishi kerak.

Bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayoni, jamiyatning tez o`zgarib borayotgan turmush sharoiti, ta`lim tizimiga ta`sirchanlik va tezkorlik xossalaring berilishini, ya`ni ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot talablariga javob berish, shaxs qobiliyati va iste'dodini hisobga olish imkoniyat va shart-sharoitlarini yaratishni taqozo etadi.

O'quv-tarbiya dasturlarining ta'sirchanligi va tezkorligini ta'minlash ta'lim jarayonini differentsiatsiyalash muammosi bilan uzviy bog'liq. Hozirgi sharoitda, so'zda emas, ishda uzlucksiz ta'lim tizimiga ta'limni differentsiatsiyalash printsip va mexanizmlarini joriy etish kerak.

Ta'limni differentsiatsiyalash zamonaviy ta'lim tizimining asosiy xususiyatlaridan biridir. U o'quvchi-talabalarning shaxsiy ehtiyojlari, layoqati, imkoniyatlari, qiziqishlari, kasb tanlashidan kelib chiqqan holda turli ko'rinishda bilim olish imkoniyatini beradi.

Kollej o'quv-tarbiya jarayonida qatnashuvchi barcha sub'ektlarning o'zaro samarali ta'sirini ta'minlovchi mexanizmlar va shart-sharoitlarni yuzaga keltirish zarur. Umuman olganda, ushbu tizimning barcha tarkibiy qismlari – oila, uzlucksiz ta'lim, mahalla, jamoat birlashmalari, jamg'armalar mavjud. Biroq, birinchidan, ularning o'z ichidagi samaradorlik faoliyatini ko'tarish, ikkinchidan, samarali ta'sirchanlik, ya'ni uzviyligi, bir-biriga chambarchas bog'liqligidan kelib chiqib ularning faoliyatini takomillashtirish lozim.

Kasb-hunar kollejlarining faoliyatini ijtimoiy institutlar sifatida tubdan qayta ko'rib chiqish zarur. Bunda, maktab, litsey, kollej, institutlarni nafaqat ilm-fan maskani, balki haqiqiy madaniy-ma'rifiy markazlarga aylantirish kerak. Ular mahalla, oila, jamoat birlashmalari bilan yaqindan aloqada bo'lishlari shart. Ushbu maskanlarda ijod qilish ruhi, ijtimoiy faollik, shaxsiy ishtirok, o'zaro hamkorlik muhitining yaratilishi, bir tarafdan, mustaqil fikr yurituvchi shaxsni tarbiyalashga, ikkinchi tarafdan, yangi ijtimoiy muhit, tafakkurning shakllanishiga olib keladi.

Talabalarda darslik, ilmiy-ommabop va qo'shimcha adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikmalar, ijodiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirish maqsadida modulli ta'lim texnologiyalaridan foydalilanildi. Modulli ta'lim texnologiyalarining o'ziga xos jihat o'rganilayotgan mavzu bo'yicha talabalarning mustaqil va ijodiy ishlashiga imkon beradigan modulli dastur tuziladi. Talabalar modul dasturi yordamida mustaqil va ijodiy ishlab, mashg'ulotlardan ko'zlangan maqsadga erishadilar.

Modul dasturlari o'rganilayotgan mavzu yuzasidan talabalar bajarishi lozim bo'lган topshiriqlar, topshiriqlarni bajarish bo'yicha ko'rsatmalarni o'zida mujassamlashtiradi. Ishlab chiqilgan dasturlar mazmun va mohiyatiga ko'ra, talabalarning individual, ikkita talaba birgalikda va kichik guruhlarda hamkorlikda ishlashiga mo'ljallangan modul dasturlariga ajratiladi. Modul dasturlarning didaktik maqsadidan kelib chiqib, o'quv-tarbiya jarayonidan o'z o'rniда foydalanish yuqori samara beradi.

O'quv-tarbiya jarayonida hamkorlikda o'qitish texnologiyasi metodlaridan foydalanish har bir talabani kundalik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, shaxs sifatida ongli mustaqillikni tarbiyalash, talabada shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usini vujudga keltirish, o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lган ishonchini mustahkamlash, ta'lim olishda mas'uliyat hissini shakllantirishni ko'zda tutadi. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi har bir talabaning ta'lim olishdagi muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini anglagan holda muntazam va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, berilgan topshiriqlarni sifatli bajarishga, o'quv materialini puxta o'zlashtirishga zamin tayyorlaydi.

Kollej tizimidagi ta'lim jarayonida olib boriladigan mashg'uotlarda hamkorlikda o'qitish texnologiyasining guruhlarda o'qitish, zigzag yoki arra, kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodlaridan foydalanish uchun pedagog har bir metodning didaktik maqsadini anglagan holda o'quv topshiriqlarini tuzadi va ulardan o'z o'rniда foydalanish yo'llarini belgilaydi.

Hozirgi kunda juda ko'p metodist va pedagog olimlar "Zamonaviy pedagogik texnologiyalar" talaba-o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda ko'zlangan maqsadga erishishni to'la kafolatlaydi, deb qaralmoqda. To'g'ri, zamonaviy texnologiyalar yordamida ishlab chiqarishda boshqaruvchidan katta kuch talab qilinmaydi. Maxsus texnologiyaning o'zi qo'yilgan maqsadga to'la erishishni kafolatlaydi. Ammo bu nazariyani pedagogik texnologiyada to'laligicha qabul qilib bo'lmaydi, chunki bunda ob'ekt shaxs bo'lib, uning ongi taklif qilinayotgan texnologiyani to'laligicha qabul qila olmaydi, aksincha uni inkor qilishi mumkin.

Shuning uchun ham zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga kiritishda uning boshqaruvchisi bo’lgan pedagog ko’zlangan maqsadga erishishning bosh kafolatchisi bo’ladi. Demak, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni uning asosiy negizi bo’lgan axborotlar texnologiyasini ta’lim tizimiga joriy etishda uning boshqaruvchisi bo’lmish pedagogning tayyorgarlik darajasini birinchi o’rinda hal qilish bugungi kun “pedagogika” fanining eng dolzarb muammolaridan biriga aylandi.

Kollejlardagi ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o’quv jarayoniga joriy etish ko’lamini kengaytirish, bu yo’nalishda ilg’or pedagogik tajribalarni tadbiq etish, har bir fan bo’yicha bu sohada aniq rejalarini tuzish va amalga oshirish; darslik, o’quv qo’llanma, dastur, ma’ruza matnlarini tayyorlash, ilmiy-metodik ishlarda, o’quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etishni rivojlantirish, ularni axborot vositalari bilan ta’minlash hamda kommunikatsion tarmoqlarga bog’lash eng muhim vazifa hisoblanadi.

Umuman olganda, ta’lim tizimida faoliyat ko’rsatayotgan har bir pedagog quyidagi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, ya’ni:

- zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ilmiy-nazariy asoslari;
- pedagogik texnologiyalar kontseptsiyasining rivojlanish tarixi;
- ta’lim jarayoniga texnologik yondashish haqida tasavvurga ega bo’lish;
- pedagogik texnologiyalarning didaktik qonuniyatlarini;
- o’qitiladigan fanga tegishli ilg’or o’qitish texnologiyalarini;
- didaktik jarayonni ma’lum vaqt chegarasida loyihamanishi;
- o’qitishning faol metodlarini bilish va qo’llay olish;
- uy vazifalarini maqsadli, tashxisli va aniq o’quv element turi tarzida berish, texnologiya loyihamalarining mantiqiy tuzilmasi, korrektsiyasi;
- o’quv maqsadlari tavsiyanomasini ishlab chiqish;
- test topshiriqlarini talaba faoliyat darajalariga mos holda tuzish bo’yicha ko’nikmalarga ega bo’lish sharti;
- internet kompyuter tarmog’idan foydalanish;

- o'quv jarayoniga elektron pochtadan foydalanish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lish;
- reyting nazorati va talabalarining bilimlarini ob'ektiv baholashni bilishi kerak.

Bugungi kunda respublikamizda oliy ta'lim tizimi yangi rivojlanish pog'onasiga ko'tarildi: ikki bosqichli ta'lim – bakalavriat va magistratura faoliyat ko'rsata boshladi; davlat ta'lim standartlari ishlab chiqildi; talabalarining mustaqil ta'lim olishini yakka tartibda amalga oshirish joriy etilmoqda, ta'lim mazmunida fan va ishlab chiqarish integratsiyasi o'z aksini tobora ko'proq topmoqda; professor-o'qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirishga e'tibor kuchaytirilganligi alohida tahsinga sazovor.

Bu esa bugungi kundagi ta'limning o'rta pog'onasi bo'lgan kollejlardagi ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash, unga asoslangan holda yangi tushunchalarni izohlashni, talabalardagi mustaqil fikrlash va o'z ustida ishslash imkoniyatlarini yanada oshirishni ta'minlaydi.

Demak, zamonaviy texnologiyalarni ta'lim tizimiga joriy etilishi bugungi kun yoshlaridagi intiluvchanlikni, yangilikni o'zlashtirish, yangi g'oyalar va maslaklar sari faollikni oshirishga sharoit yaratadi.

2.2. KHKlarida buxgalteriya fanlarini o'qitilishida pedagogik texnologiyalardan foydalanish holati va uning tahlili

Ijtimoiy voqelik ta'limdi boshqarish muammolarini ko'rib chiqish va hal qilishni mustaqil yo'naliш sifatida ajratib olish, ta'limg-tarbiya jarayonini boshqarishning asoslangan usul, vositalarini ishlab chiqish va joriy qilish zaruratinib belgilab berdi. Uning o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish o'rtasidagi tashkiliy-boshqaruv, axborot aloqalari; ijtimoiy jihatdan ahamiyatga molik shaxsni shakllantirishdagi yaxlit jarayonning tarkibiy qismlari sifatidagi ahamiyatini oshirdi.

Bugungi kunda erkin va mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy-siyosiy hayotda ongli ravishda va faol ishtirok etishga qodir yosh avlodni shakllantirish “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ning asosiy ustuvor yo'naliшidir. Bu esa mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga demokratik asoslarini joriy etishni, fuqarolik jamiyatni va huquqiy davlat qurishni tezlashtirish imkonini beradi. Dastur ta'limg muassasalari mustaqilligini kengaytirish orqali ta'limg boshqaruvini demokratlashtirishni o'z ichiga oladi.

O'qish, o'qitish – inson faoliyatining boshqa sohalari singari - ijtimoiy foydali faoliyatdir. Iqtisodiy tuzumlar nima ishlab chiqarayotgani bilangina emas, balki qanday ishlab chiqarayotgani va qanaqa mehnat qurollari bilan ishlab chiqarayotganligi bilan biri ikkinchisidan farq qiladi, degan g'oya o'qish-o'qitish faoliyatiga ham taalluqlidir.

Pedagogika fanida ta'limg usullari rivojlanishiga shu nuqtai nazardan qarab, uni shartli ravishda quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

1. Muallim “o'z qo'l kuchi” bilan o'qitish bosqichi, ya'ni o'quvchi uchun axborot manbai – o'qituvchi bo'ladi.
2. O'quv kitoblari, darsliklar yaratilgan va keng qo'llanilgan bosqich.
3. Audiovizual vositalar qo'llanilgan bosqich.
4. O'qitishni boshqarishda oddiy avtomatlashtirish vositalarini qo'llash bosqichi.

5. O'qitishni hozirgi zamonaviy EHMlar vositasida boshqarishni avtomatlashtirish bosqichi.

Insoniyatning rivojlanish davrlari almashganda pedagogik texnologiyalar butunlay yo'q bo'lib ketmaydi, balki pedagogik texnologiyalar keyingi davrlarga assotsiatsiya orqali fikran bog'lanadi, yangi sifatlar, xususiyatlarga ega bo'lib, kuchayadi va boyiydi. Ushbu jarayon borgan sari tezlashib boradi.

Kishilik tarixida bosqichma-bosqichlik uzoq muddat davom etgan. Unda o'qituvchi o'z kuchiga, o'z bilim va mahoratiga asoslanib ish bajargan. Keyinchalik dunyoviy va diniy mazmundagi qo'lyozma kitoblar yaratildi, lekin o'quvchi ularning mazmunini o'qituvchi faoliyati vositasida o'zlashtiradi.

Ikkinchi bosqich - qog'oz o'quv kitobi davri hali nihoyasiga yetkazilgani yo'q, darsliklar yaratish va ulardan foydalanish texnologiyasi hamon mukammal emas. Lekin o'qitishning 1,2,3-bosqichlariga xos ta'lif vositalari maktablarga jadal kirib bormoqda.

O'quv adabiyotlarini joriy etish qarama-qarshiliklar kurashi natijasida sodir bo'lgan. Keyingi davrlarda ham ta'lif sohasidagi jiddiy o'zgarishlar kurashsiz, oson bo'limgan.

Bugungi kunda ham birinchi bosqich texnologiyasi ruhida shakllangan ayrim pedagoglarda keyingi davrlarda vujudga kelgan o'quv vositalarini o'zlashtirib olishga, ta'lif-tarbiya jarayonini shu asosda tashkil etishga intilish sust darajada. 1-bosqich o'quv vositalari o'qituvchidan ko'p mehnat talab etadi va o'quvchining bilim, tayyoragarlik darjasini yuqori bo'lmaydi.

Bu pedagogik bosqichlarning har birida ta'lif metodlari takomillashtirila borganligi tufayli o'qituvchi mehnatining samarasi ortib, zamonaviy texnologiyani qo'llaydiganlar safi kengaya borgan.

Bugungi kunda respublikamizni rivojlangan davlatlar darajasiga chiqarish maqsadida bir qator qonun va qarorlar qabul qilindi. Ta'lif sohasi O'zbekiston davlati siyosatining ustuvor sohasiga aylandi. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da rivojlangan mamlakatlar darajasida raqobatbardosh, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni egallagan, yuqori malakali kadrlar tayyorlash maqsadi kun tartibiga

qo'yildi. Auditoriyalarga kirib o'quv jarayonini kuzatgan kishi mavjud pedagogik tizim birinchi va ikkinchi bosqichlarga xos ekanligiga ishonch hosil qiladi.

Pedagogik texnologiyaning asosiy elementlari quyidagilardan iborat:

Pedagogik muloqot texnologiyasida o'qituvchi (pedagog)ning o'quvchi-talabalar bilan muloqoti.

Muloqotning vazifalari:

- shaxsni tanish, axborot almashish;
- kelgusi pedagogik muloqotni modellashtirish va tahlil etish;
- muloqotdan olgan tasavvurlari;
- muloqot yuzasidan fikrashi;
- pedagogik muloqotni tashkil etish texnikasi;
- ishga ijodiy yondashishi.

Pedagogik talab texnologiyasi.

- "pedagogik talab" tushunchasi, uning o'ziga xos xususiyatlari;
- xulq-atvor va ijtimoiy madaniy qoidalarning namoyon bo'lishi;
- o'quvchi-talabaga bo'lган hurmat va talab;
- pedagogik talabning psixologik tamoyillari va mezonlari.

Baholash texnologiyasi, pedagogik baho va belgilash.

- hatti-harakatlardan olgan taassurot, voqelikni, ob'ekt va sub'ektni qabul qilish;
- baho berish usullarini tanlash o'qituvchi (pedagog) o'z imkoniyatini tahlil etishi, ta'sir ko'rsatish samaradorligini oshirishi;
- pedagogik baholash texnologiyasi.

Axborotning ta'sir ko'rsatish texnologiyasi.

- nutqiy-axborot berish, "ratsional axborot berish" tushunchalari, demonstratsion va ko'rgazmali axborot olish vositalaridan biri sifatida;
- nutqiy ta'sir etish, suhbat, hamkorlik, tezis argument ko'rgazma obrazi;
- nutqiy ta'sir etish texnologiyasi;
- demonstratsion va ko'rgazmali vosita, etik, iqtisodiy, estetik, gigienik materiallar;

- qabul qilishning fiziologik va psixologik xususiyatlarini demonstratsiya qilish texnologiyasi.

Pedagogik materiallarni yaratish va uni yechish texnologiyasi.

- pedagogik konflikt tushunchasi – konflikt pedagogik texnologiya elementi sifatida, konflikt sub'ektlari orasida qarama-qarshiliklar tavsifi sifatida, bo'sh va mazmunli konflikt;

- holat tahlili (voqeani aniqlash);
- konflikt;
- konfliktning xilma-xilligi (norozilik, qarshi chiqish);
- konfliktni yechish shakllari (umor, hazil, toifa).

Zamonaviy pedagogik texnologiyaning qo'shimcha elementlari:

1. Psixologik muhit yaratish texnologiyasi.
2. Guruh faoliyatini tashkil etish texnologiyasi.
3. Muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsiz holatlarni tashkil etish texnologiyasi.
4. O'quvchining xatti-harakatiga pedagogik reaksiya qilish texnologiyasi.
5. Xulqi va odobi yomon o'quvchi-talabalar bilan ishlash texnologiyasi.
6. Etik himoya texnologiyasi.
7. Muammoli vaziyatlar yaratish texnologiyasi.
8. Pedagogik vosita texnologiyasi.
9. Pedagogik improvizatsiya texnologiyasi.

Biz bitiruv malakaviy amaliyotimiz davomida kollejdagi iqtisodiy fanlarni o'qitilishida pedagogik texnologiyalarning olib borilishini kuzatdik. Shu asosida quyidagi ma'lumotlarni taxlil qilib o'rgandik. Quyida «Buxgalteriya hisobii» fanidan olib borilgan 2 soatlik ma'ruza dars jarayonini ilmiy loyihasini ilmiy rahbarim assistant F.F.Salomov bilan birgalikda ishlab chiqdik va dars jarayonini tashkil etilishini kuzatdik.

Pedagogik texnologiyalar—ta'lim berish va zamonaviy axborat texnologiyalarini qo'llash yordamida talabalarning shaxsiy sifatlarni rivojlanish va takomillashtish imkoniyatini beruvchi o'quv vositalari bo'lib, u o'ziga xos didaktik va uslubiy asosga ega.

Iqtisodiy fanlarning o'qitilish sifati va samaradorligini oshirish maqsadida, pedagogik texnologiyalarni zamonaviy axborot texnologiyalar imkoniyatlari asosida uch turdag'i o'quv mashg'ulotlariga, ya'ni ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda kompleks holda qo'llash tavsiya etiladi.

Iqtisodiy fanlardan o'rganilayotgan materiallarning o'quv soatlari miqdori hisobga olingan holda mavzu bloklarga ajratiladi, har bir ma'ruza mavzu blokiga 2-8 o'quv soati oralig'ida vaqt ajratiladi hamda ushbu mavzu blokiga mos amaliy va labaratoriya mashg'ulotlari mazmuni va hajmi belgilanadi. Bu usulda har bir mavzuni o'rganishdagi ichki izchillik va uzviylik to'la saqlanadi va talabalarda mavzuga oid malaka va ko'nikmalarni to'laroq va maqsadliroq shakllantirish imkoniyati kuchayadi.

Men shu o'rinda aytib o'tmoqchimanki darslarni mana shunday turli xildagi innovatsion texnologiyalar orqali olib borish bir qancha afzalliklari bor.

Birinchidan, vaqt ni tejaydi bunda kam vaqt ichida ko'p talabani baholash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ikkinchidan, talabalarni aktiv ishlashga mulohaza qilishga, o'zini fikrini bayon qilishga o'rgatadi.

Uchinchidan, talabani o'z ustida ko'proq ishlashga undaydi.

An'anaviy usulda o'quv axboroti asosan o'qituvchi tomonidan bayon qilinadi, o'quvchilar esa mazkur bilimlarni xotirasida saqlashlari va mustahkamlashlari kerak. Talabalarda bu bilimlarning borligini imtihonlarda ularni xotirada qayta tiklab takrorlab aytib berishi, ya'ni bu bilimlarga to'g'ridan- to'g'ri murojaat qilinganda, ularni hech qanday qo'llanmasiz xotirada aytib berishi tekshiriladi. Bu tizimda bilimlar-asosan yodda saqlash natijasidir, ko'p xollarda bu formal ma'lumotlardir. Ular xotirani ichidan yuzaga chiqariladi, boshqacha qilib aytganda unga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilib savol berilganda esga (yodiga) keltiriladi. Biroq o'qish-o'qitish natijasi xotirlash darajasidagi bilimlar xotirada uzoq saqlanmaydi, zarur vaqtida o'quvchilar ularni juda qiyinchilik bilan eslaydi, ko'p xollarda esa umuman eslayolmaydi.

Noananaviy ta'lim usulida esa, imkoniyatlar juda katta biz buni bugungi kundagi darslarimizda ham guvoh bo'lib turibmiz. Zero bu bugungi kunda davr talabi hamdir.

Yuksak yutuqlarga erishishimiz uchun o'quv yurtlarida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari, innovatsion texnologiyalarning o'rni juda katta deb hisoblaymiz. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish va uni amalga oshirishda interfaol metodlardan, ya'ni jamoa bo'lib fikrlashdan to'liq foydalaniladi.

Psixolog olimlar tomonidan isbotlangan va ko'rib chiqilgan o'zlashtirish piramidasiga asosan quyidagicha xulosaga kelish mumkin:

O'quvchilarining o'zlashtirishi o'quv materiallarini tinglaganda 5%, ko'rgazmali usullar qo'llaganlarida 20%, baxs-munozara usulida 40%, ishbilarmonlik o'yinlari va munozara usulida 75% va boshqa o'quv materiallarini boshqalarga o'rgatishda 90% ni tashkil etar ekan.

Demak, biz o'qitishning barcha usullaridan keng va samarali foydalanganimizdagina ko'zlangan maqsadga, ya'ni zamonaviy mutaxassislarini tayyorlashga va kadrlar sifatini oshirishga erishishimiz mumkin.

Shuni xulosa qilib aytish mumkinki, ta'limning barcha bo'g'inlarini shunday tashkil etish kerakki, u yoshlarga chuqur va asosli bilim berish bilan birga keng qamrovli fikrlashga o'rgatsin. Ta'lim jarayonida talaba mustaqil bilim olish ehtiyoji shakllanib borishi hozirgi kunning talabidir. Vazifa o'quvchining umumiyligi o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'limda ilg'or axborot texnologiyalardan foydalangan holda: tayanch bilimlarni egallashdan tortib, o'quv fanlari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini interfaol tarzda egallash jarayonining samarali yo'llarini shakllantirishgacha ta'limni tashkil qilishga mutlaqo yangicha yondashuvni ishlab chiqishdan iborat. Bunday yondashuvning maqsadi - innovatsion o'qitish vositalarini qo'llash orqali o'quvchilarining bilim, ko'nikma va malakalarini sifatini oshirishdir.

Hozirda bizning institutimizda darslar innovatsion va axborot texnologiyalar asosida olib borilmoqda. Biz bo'lajak pedagoglar esa bularning barchasini o'rganib, malakaviy amaliyotimizda qo'llab, har bir darsni zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalar asosida olib bormoqdamiz. Shuning natijasida biz har bir o'quv yurtida ta'lim xizmatlarini sifatli amalga oshirishda o'z hissamizni qo'shamoqdamiz.

Yana shuni aytish mumkinki, hozirgi o'quv jarayonida iqtidorli yoshlar bilan yakka tartibdagi o'quv dasturlari bo'yicha ishlash kabi mexanizmlaridan kam foydalanilmoxda. Iqtidorli talabalar bilan ishlashni kuchaytirish va ularning bilimlarini yanada rivojlantirish kerak. Chunki bizning mamlakatga yuksak salohiyatli, bilimli raqobatbardosh kadrlar kerak. Bunday yoshlarni, ya'ni kadrlarni tayyorlashda muammoli ta'lim tashkil etish va turli texnologiyalardan foydalanish zarur. Bu texnologiyani qo'llash orqali guruhlar ichida kichik guruhlar o'rtasida raqobat muhitini vujudga keltiradi, o'quvchilarni harakatchanlikka chorlab, ruhlantirladi va mustaqil o'qib o'rganishni talab qiladi.

Demak biz mehnat bozori uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun quyidagilarni inobatga olishimiz lozim:

1. Iqtidorli talabalarni qo'llab-quvvatlash;
2. Har bir talabaga individual yondashish;
3. Talabalar o'rtasida raqobat kurashini vujudga keltirib, ularni mustaqil o'qib - o'rganishini tashkil qilish;
4. Darslarni innovatsion va axborot texnologiyalardan foydalangan holda olib borish;
5. Talabalar bilan olib boriladigan mustaqil ta'limni kuchaytirish;

III-Bob.Talabalarning iqtisodiy savodxonligini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning istiqbollari

3.1. Kasb-hunar kollejlarida innovatsion texnologiyalar asosida ta`lim jarayonini o'qitish uslubiyotini takomillashtirish va uning tamoyillari

Hozirgi kunda ta`lim jarayonida ilgor pedagogik texnologiyalar yutuqlaridan foydalanish asosida shaxsni tarbiyalash, o'qitish va rivojlantirish maqsadlari, mazmuni, metodlari, vositalari va tashkiliy shakllarini ilmiy ta'minlash kiradi.

Shu ma'noda tashkil etilayotgan ma'ruza va seminar darslarini o'tkazish va ular uchun zamonaviy dars ishlanmalarini yaratishga e'tibor berila boshlandi. Bizning olib borgan ilmiy tadqiqotlarimiz natijasi o'laroq kollejdagi "Buxgalteriya hisobi" yo'nalishi 2 – bosqich talabalariga "Buxgalteriya hisobi" fanidan ikki soatlik ma'ruza darsini innovatsion texnologiyalar asosida o'tkazish uslubiyotini quyidagicha tuzish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

Ya'ni, biz "Baholash va kalkulyatsiya" mavzusini yangi pedagogik texnologiyalardan: "3x3" texnologiyasi, "Intervyu" kabi texnologiyalardan foydalandik. Dars o'tishda asosiy e'tibor dars o'tish metodikasiga qaratildi.

Mavzu: Baholash va kalkulyatsiya.

Darsning maqsadi: Talabalarga iqtisodiy o'sish, uning turlari va omillari kabi iqtisodiy tushunchalar xaqida ma'lumot berish va ularda iqtisodiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

Darsning borishi:

Tashkiliy qismi: talabalar bilan salomlashib, auditorianing umumiyligi holatini, talabalarning darsga tayyorlarligini nazorat qilish, yo'qlama qilish.

Asosiy kism: Avvalgi darslarda o'tilgan mavzularni takrorlash va mustaxkamlash hamda yangi mavzuni bayon etishga asos tayyorlash maqsadida tegishli savollar bilan talabalarga murojaat qilinadi. So'ngra yangi mavzu bayoni quyidagi reja asosida tashkil etiladi: (bu reja aniqlashtirilgan maqsadli differentsial texnologiyaning "S" standart dasturini tashkil etadi).

1. Baholash va kalkulyatsiyaning mazmuni .
2. Baholashga ta`rif bering .
- 3.Kalkulyatsiya nima ?
4. Baholash va kalkulyatsiyani buxgalteriya hisobi fanida o`rganishning ahamiyati.

Dars jihozlari: ma’ruza matni, *Prezident asarlari, bukletlar, jadvallar*.

Darsda qo’llaniladigan vositalar: *kompyuter, video ko’zgu, proektor*.

Dars o’tishda qo’llaniladigan uslublar: *og’zaki, ko’rgazmali, amaliy, suhbat, intervyu*.

Dars o’tish texnologiyasi: “3x3”, intervyu, aniqlashtirilgan maqsadli differentsial texnologiya.

Reja savollariga javob berishga o’tishdan avval o’qituvchi, talabalarni iqtisodiy o’sish tushunchasini qay darajada tushunishlarini o’rganish maqsadida, bir vaqtning o’zida intervyu, bumerang, klaster texnologiyalaridan foydalaniб talabalarga quyidagi savol bilan muroja’at qilishi mumkin: (savollar berilishidan avval o’qituvchi guruhni uchga bo’lib oladi. Har bir guruhga tegishli texnologiya topshiriqlari beriladi).

“Intervyu” texnologiyasi bo'yicha:

1. Aytinglarchi, Baholash va kalkulyatsiya nima tushiniladi?

2. Baholashga ta`rif bering ?

Ikkinchi guruhga quyidagi savollar berildi, lekin ular javoblarini yozma ravishda bayon etishlari uqtiriladi).

1. Kalkulyatsiya deganda nimalar nazarda tutiladi?

2. Baholash va kalkulyatsiyani buxgalteriya hisobi fanida o`rganishning ahamiyati.

Uchunchi gurux talabalariga o’qituvchi biznes va tadbirkorlik tushunchalari bilan bog’liq tayanch iboralarni tarmoqlarga bo’lib yozishlarini talab qiladi.

Talabalar oldiga quyidagicha shartlar qo’yiladi: Har bir guruh tayyor bo’lgandan so’ng bir birlariga xalaqit bermasdan javob berishlari kerak, har bir

javob diqqat bilan tinglanishi zarur va talabalar bir-birlarini fikr-mulohazalarini hurmat qilishlari kerak.

Yuqoridagi qo'llanilayotgan texnologiyalar birinchidan, talabani uyda qanchalik mustaqil tayyorlanganligini ko'rsatsa, ikkinchidan, o'qituvchi uchun mavzu bayonida bu fikrlar tayanch iboralar vazifasini o'taydi, ya'ni talabani bor bilimini o'qituvchi boshqa materiallar asosida boyitadi.

Aytilgan fikrlar o'qituvchi tomonidan umumlashtiriladi va rejada berilgan har bir savolga o'qituvchi talabalarning javoblariga asoslanib tushuntirishlar beradi, ya'ni ma'ruza qiladi. Ma'ruza matni oldindan talabalarga tarqatilganligini inobatga olib, uni biz quyida keltirmaymiz.

Ma'ruza darsi so'ngida o'qituvchi mavzu yuzasidan talabalarning savollariga javob beradi, umumlashtiradi va uyga vazifa berib, dars yakunlanadi.

1-Jadval

« Baholash va kalkulyatsiya » mavzusini o'qitish texnologiyasi

Iqtisodiyot kasb-hunar kollejining 2-bosqich talabalari	Fan: «Buxgalteriya hisobi»	9-Mavzu 2 soat
22 ta talaba		
Dars shakli		<u>Ma'ruza</u>
Ma'ruza rejasi:		<ol style="list-style-type: none">1. Baholash va kalkulyatsiyaning mazmuni .2. Baholashga ta`rif bering .3.Kalkulyatsiya nima ?4. Baholash va kalkulyatsiyani buxgalteriya hisobi fanida o`rganishning ahamiyati.
Darsning maqsadi: Talabalarga iqtisodiy o'sish haqida tushuncha berish, ularda iqtisodiy bilim, malaka, ko'nikma hosil kilish.		

Pedagogik vazifalar:	O'quv natijalari:
<ul style="list-style-type: none"> • 1. Baholash va kalkulyatsiyaning mazmuni tushuntirish. 2. Baholashga ta`rif berish 3. Kalkulyatsiya tushunchasini asoslash. 4. Baholash va kalkulyatsiyani buxgalteriya hisobi fanida o`rganishning ahamiyati borasida tasavvur hosil qilish 	<ul style="list-style-type: none"> - Baholash va kalkulyatsiyaning mazmuni tushunadilar. - Baholash ta`rif ini bilib oladilar - Kalkulyatsiya tushunchasini taxlil qiladilar . 4. Baholash va kalkulyatsiyani buxgalteriya hisobi fanida o`rganishning borasida tasavvurga ega bo`ladilar .
O'quv vositalari:	Ma'ruzalar matni, market, doska, bo'r, vatman, tarkatma materiallar.
Ta'lif shakli va metodlari:	Ma'ruza, savol-javob, "3x3" texnologiyasi, Intervyu.
Shart-sharoit:	Kichik guruxlar bilan ishslash uchun texnik jixozlangan auditoriya, bo'r, doska.

« Baholash va kalkulyatsiya » mavzusini *texnologik haritasi*

Ish bosqichlari va mazmuni	<u>FAOLIYAT</u>	
	O'qituvchi	Talaba
Tayyorlov bosqichi	Mavzuni tanlaydi, maqsad, natija va uning baholash mezonini shakllantiradi. Muammoni yechish uchun zarur shakl va vositalarni aniqlaydi.	Ma'ruza matnidan o'tiladigan mavzuni o'qiydilar.
1-bosqich O'quv mashg'ulotiga kirish	1.1. « Baholash va kalkulyatsiya » mavzusi bilan tanishtiradi. O'tilayotgan mavzu ma'ruza tarzida tashkil etilishi haqida e'lon qiladi. Ko'zlangan maqsad va rejalashtirilgan natija haqida to'xtaladi.	Eshitadilar, yozib oladilar.

2-bosqich Asosiy qism (55 minut)	<p>2.1. Talabalar diqqatini jalb etish uchun savollar beradi:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Baholash va kalkulyatsiyaning mazmuni . 2. Baholashga ta`rif bering . 3.Kalkulyatsiya nima ? <p>2.2. Talabalardan olingan javoblarni tahlil qilib, yangi mavzuni o'zi bayon etadi.</p> <p>2.3. Talabalarni uch guruxga bo'ladi va har bir guruuhga tegishli savollar beradi. Savollar tegishli texnologiyalarga asoslangan holda tuzilgan bo'ladi. 1. Iqtisodiy o'sish tushunchasini «Klaster» texnologiyasi bo'yicha tavsiflang. 2. Iqtisodiy o'sish tushunchasiga mos ravishda iqtisodiy terminlarni yozib chiqing.</p> <p>3. Yuqoridagi ikki savolni ogzaki javobini eshitishni aytadi.</p> <p>2.4. Eshitadi.</p>	<p>Savollarga javob beradilar.</p> <p>Talabalar eshitadilar, yozib oladilar.</p> <p>Talabalar uch guruxga bo'linadilar.</p> <p>Tashkil bo'lgan guruuhlar o'zlarini savollariga javob izlaydilar, tayyorlanadilar.</p> <p>Talabalar prezentatsiya qiladilar, ya'ni javob beradilar.</p>
3-bosqich. Yakunlovchi bosqich	<p>3.1. Talabalar muammolarini yechish jarayonlarini tahlil qilib beradi. Kuzatish natijalari jarayonida faol talabalarni aytib o'tadi, jarayonning kamchiliklari haqida to'xtaladi.</p> <p>3.2. Natijalarini baholaydi. Yaxshi ishtirokchilarni ragbatlantiradi.</p> <p>3.3. Yakuniy xulosalaydi.</p>	<p>Talabalar eshitadilar, kamchilik va yutuqlari bilan tanishadilar.</p>

Biz bitiruv amaliyoti davomida ikkita guruhniga tajriba-sinov guruhi sifatida tanlab oldik. Tanlab olingan guruhlarga (tajriba sinov ishlaridan avval «BAHOLASH VA KALKULYATSIYA» mavzusi bilan bog'liq tushunchalar haqida qisqacha tajriba o'tkazdik, ya'ni talabalarga uchta iqtisodiy o'sish bilan

bog'liq savollar berildi. Tajriba jarayonida talabalarni o'zlashtirish ko'rsatkichlarini yuqori, o'rta va quyi darajada baholandi. Mazkur tajriba natijalari quyidagicha bo'ldi.

2 Jadval

« Baholash va kalkulyatsiya » mavzusida seminar mashg'ulotini an'anaviytarzda tashkil etishda talabalarining o'zlashtirish ko'rsatkichlari

O'zlashtirish darajalari	BX-101 GURUHI		BX-102 GURUHI	
	Talabalar soni	O'zlashtirish ko'rsatkichi (%)	Talabalar soni	O'zlashtirish ko'rsatkichi (%)
A'lo	5	20	5	24
Yaxshi	4	16	3	12
Qoniqarli	16	64	16	64
Jami:	25	100	25	100

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, birinchi tajriba sinov guruhidagi talabalardan har uchala savolga olingan javoblar quyidagicha bo'ldi: a'lo - 20 %, yaxshi - 16 %, qoniqarli - 64 % bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tajriba sinov guruhida: a'lo - 24 %, yaxshi - 12%, qoniqarli -64 %ni tashkil etgan. Bundan ko'rinish turibdiki, 1-chi tajriba sinov guruhidagi ma'ruza mashgulotida olingan javoblar 2-chi tajriba sinov guruhidagi ma'ruza mashgulotida olingan javoblarga nisbatan deyarli bir xil.

Endi « Baholash va kalkulyatsiya » mavzusidan innovation ta`lim texnologiyalari asosida tashkil etilgan amaliy mashgulotidan so'ng olingan natijalarni quyidagi jadvalda keltiramiz.

3-Jadval

« Baholash va kalkulyatsiya » mavzusidan innovatision ta`lim texnologiyalari asosida tashkil etilgan dars jarayonida talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari

O'zlashtirish darajalari	1-chi tajriba sinov guruhi (BX-101)		2-chi tajriba sinov guruhi (BX-102)	
	Talabalar soni	O'zlashtirish ko'rsatkichi (%)	Talabalar soni	O'zlashtirish ko'rsatkichi (%)
A'lo	15	60	12	48
Yaxshi	8	32	8	32
Qoniqarli	2	8	5	20
Jami:	25	100	25	100

Jadval ma'lumotlaridan ko'rilib turibdiki, 1-chi tajriba sinov guruhidagi talabalardan har uchala savolga olingan javoblar quyidagicha bo'ldi: a'lo -60 %, yaxshi - 32 %, qoniqarli - 8 % bo'lgan bo'lsa, 2-chi tajriba sinov guruhida: a'lo -48 %, yaxshi - 32 %, qoniqarli - 20 %ni tashkil etgan. Bundan ko'rilib turibdiki, BX-101 tajriba sinov guruhidagi ma'ruza mashgulotida olingan javoblar 2-chi BX-102 guruhidagi ma'ruza mashg'ulotida olingan javoblarga nisbatan yuqori. Talabalar faoliyatini ma'ruza va seminar jarayonida baholash mezonlari quyidagilarga asoslandi:

«a'lo» - 2 ball, «yaxshi» - 1,7 ball, «qoniqarli» - 1,4 ball.

Yuqoridagilardan qisqacha xulosa qilib shuni aytish mumkinki, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib iqtisodiy bilimlarni o'qitishda quyidagi samaradorlikka erishiladi:

- talabada mukammal iqtisodiy bilim, malaka va ko'nikma hosil bo'ladi;
- talaba ta'lim jarayonining nafaqat ob'ekti, balki sub'ektiga aylanadi;
- talabada iqtisodiy tafakkur kamol topadi;
- talaba o'ylanadi, izlanadi, mushohadalaydi va natijada mustaqil qaror qabul qiladi;
- o'z fikrini ochiq bayon qilishni o'rganadi;
- talabalarning iqtisodiy bilimga bo'lgan qiziqishi kuchayadi, iqtisodiyotga qiziqishi kuzatiladi;
- iqtisodiy ta'limda ketma-ketlik yuzaga keladi.

Demak, bu kabi texnologiyalarni «Buxgalteriya hisobi» fanini o'tishda ta'lim jarayoniga jalb qilish yo'llarini belgilash ta'limning barcha bosqichlarida uning samaradorligini oshirishga imkon beradi. Bu esa o'zlashtiriladigan yangi materialni yanada tushunarli va aniq tasavvur qilish, misollar bilan izohlay olish imkonini yaratadi.

3.2. Kasb-hunar kollejida xavfsiz ish sharoitini tashkil etish holati va majburiyatlar

Tashkilotlarda, o'quv bilim yurtlarida va shuningdek kasb-hunar kollejlarida ham xavfsizlikni ta'minlash va ish sharoitini yaxshilash ma'muriyatning asosiy vazifasi sifatida mehnat qonunlari kodeksiga yozib qo'yilgan.

Ma'muriyat tarkibiga rahbar xodimlar, ya'ni kasb-hunar kollejlarida, tashkilotchilik, ma'muriy-xo'jalik ishlarini amalga oshiruvchi, o'quv jarayonlarni tashkil qiluvchi, kollejda mehnat qilayotgan xodimlarni boshqaruvchi, moddiy mablag'larni taqsimot bilan ishlatish va uni nazorat qilish ishlarini olib boruvchi shaxslar kiritiladi.

Ma'muriyat xodimlariga qo'yiladigan asosiy talab, ular davlat siyosatini yaxshi tushunishlari va uni amalga oshirishga harakat qilishlari, davlat va xalq manfaatlarini tushunib amalga oshirishlari, mehnat sharoiti tartibini saqlay bilishlari, ishchilarni mehnat intizomini saqlash va ishga rag'batlantirish, talim sifatini oshirishi va darajasini bir necha o'n yil oldindan ko'ra biluvchi shaxs bo'lishlari kerak.

Ma'muriyat zimmasiga yuklatiladigan majburiyatlar asosan ishchilar bilan ma'muriyat o'rtasida tuziladigan mehnat bitimidan kelib chiqadi. Bu mehnat bitimini tuzish majburiyatini O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi bilan belgilangan. Bu qonuniyat sifatida quyidagicha taqlid qilinadi. Ishchi ma'lum mutaxassislik bo'yicha belgilangan ishni korxona ichki tartib-qoidalariga rioya qilgan holda bajarish, ma'muriyat esa mehnat qilish qonuniyatlariga asosan va jamoat bitimida ko'zda tutilgan ma'lum miqdordagi majburiyatlar mundarijasini o'z zimmasiga oladi.

Mehnat Kodeksida ko'zda tutilgan majburiyatlar quyidagilar:

Har bir xodim va o'qituvchi uchun o'z mutaxassisligi va malakasiga qarab ma'lum bir o'quv xonasi, ish stoli va boshqalardan iborat ish joyi tashkil qilish, sog'lom va xavfsiz ish sharoitini tashkil qilish, sifatli o'quv jixozlari bilan ta'minlash va mehnat intizomini, har taraflama mustahkamlash, ish sharotini kundan-kunga yaxshilab borishni ta'minlashga qaratilgan texnik jihozlar o'rnatish,

shuningdek mehnatni muhofaza qilishning nomenklatura chora-tadbirlarini amalga oshirish.

Bundan tashqari, rahbar xodimlarga xizmat vazifalari ham yuklanadi. Bu vazifalar boshqarishi lozim bo'lgan lavozimi taqozo qiladigan tavsiyanomada belgilangan bo'ladi.

Kollejlarda mehnatning sog'lom va xavfsiz sharoitlarini ta'minlash 13-moddada keltirilgan.

Kollejdagi har bir ish joyidagi mehnat sharoiti mehnatini muhofaza qilish standartlari, qoida va me'yorlari talablariga muvofiq bo'lishi lozim.

Kollejda mehnatning sog'lom va xavfsiz sharoitlarini ta'minlash, ishlab chiqarishning xavfli va zararli omillari ustidan nazorat o'rnatilishini tashkil etish va nazoratning natijalari to'g'risida mehnat jamoalarini o'z vaqtida xabardor qilish ma'muriyat zimmasiga yuklanadi.

Kollejda mehnatning sog'lom va xavfsiz sharoitlarini ta'minlash yuzasidan ma'muriyat bilan xodimlarning o'zaro majburiyatlari jamoa shartnomasi yoki bitimida ko'zda tutiladi.

Intizom javobgarligi. Har bir o'quv yurti o'z ichki tartib-qoidalarini ishlab chiqadi. Bu tartib-qoidalarning barchasi sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitini ta'minlash, jarayonlarni normada bajarishga qaratilgan.

Talablarni bajarmaslik baxtsiz hodisalarga olib kelishi mumkin. Shuningdek, ishchi-xizmatchilarining tartib-qoidalarga amal qilmasligi ish rejimining buzilishiga, kassalik, baxtsiz hodisa, zaharlanish va boshqa hodisalarning sodir bo'lishiga olib kelishi mumkin. Ular uchun intizom javobgarligi ta'sis etilgan.

Bu javobgarlik ishchilar uchun - ogohlantirish, xayfsan e'lon qilish, jiddiy xayfsan e'lon qilish, uch oy muddat bilan oyligi kam bo'lgan ishga o'tkazish yoki shu muddatga past razryad ishga o'tkazish, ishdan bo'shatish kabi tartibda amalga oshiriladi.

Rahbar shaxslar uchun javobgarlik ogohlantirish, xayfsan e'lon qilish, bir yilgacha lavozimini pasaytirish, ishdan bo'shatish yo'li bilan olib boriladi.

Xodimlar, bo'lim rahbarlari, kollej rahbari tomonidan intizom javobgarligiga tortilishi mumkin. Rahbar xodimlar esa yuqori rahbarlik xodimlari tomonidan intizom javobgarligiga tortilishi mumkin.

Rahbar xodimlar jamoa bitimida ko'rsatilgan talablarni, yuqori tashkilot buyruqlarini bajarmaganliklari va asosan xavfsizlik texnikasi, sanoat gigiyena-sanitariyasi talab-qoidalalariga amal qilinmaganligi uchun javobgarlikka tortiladilar.

Ma'muriy javobgarlik qo'yidagi uch turda belgilanishi mumkin:

1. Axloqiy harakterdagi javobgarlik (ogohlantirish, jamoat tartibidagi choralar).
2. Mablag' va pul undirish, bunda jarima va musodara qilish usuli qo'llaniladi.
3. Tartib buzuvchining shaxsiga taaluqli bo'lgan javobgarlik (ahloq tuzatish ishlari, ma'muriy - qamoq jazosi, vazifasidan chetlatish).

Mehnat xavfsizligi qoida va normalarini buzgan ishchi va xizmatchilarga ma'muriy javobgarlik tartibida ogohlantirish, jamoat tartibidagi choralar va ma'lum miqdorda jarima to'lash belgilanadi. Jarima va ogohlantirish buysunish tartibida rahbar xodimlar tomonidan emas, balki mehnatni muhofaza qilishning davlat nazorat organlari yoki shahar va tuman deputatlari kengashi ijroiya qo'mitalari tomonidan tashkil qilingan komissiyalarning qarori bilan belgilanadi.

Jinoiy javobgarlik. Mehnatni muhofaza qilish qoidalaring qo'pol buzilishi natijasida og'ir jarohatlanish yoki bir necha kishining og'ir jarohatlanish sodir bo'lsa yoki baxtsiz hodisa o'lim bilan tugasa, qoidani buzishda ayblangan rahbar hodim jinoiy javobgarlikka tortiladi. Jinoiy javobgarlik rahbar xodimni vazifasidan chetlatish yoki ma'lum muddatga ozodlikdan mahrum qilish bilan belgilanadi.

Chegaralangan moddiy javobgarlikda kollejga yetkazilgan zarar ma'muriyat buyrug'iga asosan ishchi va xizmatchining oyligidan undirib olinadi. Bunda aybdor shaxsning roziligi bilan oyligidan (uchdan biridan oshmasligi sharti bilan) ushlab qolinadi.

To'liq moddiy javobgarlik jinoyat sodir bo'lgan taqdirda va aybdor jinoiy ish qilgan bo'lsa, uni javobgarlikka tortish bilan bir qatorda ta'lim muassasasiga keltirilgan moddiy zararni ham to'liq qoplashga majbur qilinadi. Bunday javobgarlik qarorlarini tuman yoki shahar sudi organlari chiqaradi.

Hozirgi zamon fan va texnikasining o'sishi yangidan-yangi texnologiya va mashina - mexanizmlarning joriy etilishi, ishlab chiqarishda ishlayotgan har bir xodimning yuqori malakali, texnika qonunlarini tushunadigan va unga amal qiladigan bo'lishlarini talab qiladi.

Instruktajlarni asosan to'rt guruxga bo'lib qarash mumkin: 1) kirish instruktaji; 2) ish joyidagi instuktaj; 3) vaqtiga vaqt bilan o'tkaziladigan instruktaj va 4) rejadan tashqari instruktaj (GOST 12.004-74 (MXSS)).

Kirish instruktaji. Ishga yangi kirayotganlar uchun o'tkaziladi. Bu instruktajning asosiy maqsadi - ishga kirayotganlarning mehnatini muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi to'g'risida ma'lumot berish hisoblanadi. Kirish instruktaji yaxshi jihozlangan va ko'rgazmali qurollar o'rnatilgan mehnatni muhofaza qilish kabinetida, xavfsizlik texnikasi injeneri tomonidan o'tkaziladi.

Kirish instruktaji vaqtida ishga kirayotgan ishchi quyidagi holatlar bilan tanishtirilishi shart: O'zbekiston Respublikasida mehnatni muhofaza qilish qonuniyatları asoslari, o'quv yurtining ichki tartib qoidalari, xavfsizlik texnikasining umumiyligi talablari, ish joyini tashkil qilish, ishchiga topshirilgan mashina va mexanizmlarni saromjon va ozoda saqlash qoidalari, baxtsiz hodisalar oldini olish qoidalari tushuntirish bunda asosiy diqqat e'tiborni har xil erituvchilar, kislotalar, yengil alanganuvchi suyuqliklar, siqilgan havo, elektr toki xavfi mavjud bo'lgan vaziyatlarga qaratish kerak.

Mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi va o'quv jarayonida qoida, norma va instruksiyalarining buzilishi natijasida vujudga kelgan baxtsiz hodisalar haqida ma'lumotlar berilishi kerak. Baxtsiz hodisa ro'y berganda o'zini qanday tutish haqida tushuncha beriladi, alkogolli ichimliklar baxtsiz hodisaga olib kelishi haqida aytib o'tilishi shart. Kiyim bosh, maxsus oyoq kiyimi va shaxsiy muhofaza vositalaridan foydalanish qoidalari, sanitar-gigiyena sharoitlariga e'tibor berish, sanitar maishiy xonalardan foydalanish tartibi, baxtsiz hodisa ro'y berganda, baxtsiz hodisaga uchragan kishiga vrach kelgunga qadar yordam ko'rsatish usullari haqida ma'lumot beriladi.

Ish joyidagi instruktaj. Ish joyidagi instruktajda qo'yidagilar tushuntirilishi kerak: ishchining doimiy ishslash joyi, o'qituvchining doimiy ishlashi zarur bo'lган axborot texnologiyalarning xususiyati ularning vazifasi va ulardan foydalanish qoidalari. Ishga tayyorlanish qoidalari, elektron vositalarning sozlanganligini tekshirish, yurgizish o'chirish asboblarining ishlashi, yerga ulanganligi, yordamchi va asosiy qurollarning mavjudligi. Shaxsiy muhofaza aslahalarining vazifalari va ulardan foydalanish qoidalari qo'yiladigan talablar.

Instruktaj o'tkazayotganda avvalo odatdagи ish sharoitida ishchi o'zini qanday tutishi kerakligi haqida ma'lumot beriladi. Masalan avariya, yong'in va boshqa hollarda o'qituvchi o'zini qanday tutishi, tez harakat qilishi muhim ahamiyatga ega.

Shuning uchun mana shunday holatlarda qanday harakat qilish kerakligi haqida ham ma'lumot berilishi kerak.

Ish joyidagi instruktajni texnik havfsizlik bo'yicha hodim o'tkazadi.

Rejadan tashqari instruktaj. Bu instruktaj texnologik jarayonning o'zgarishi, yangi elektron namoyish etish vositalari multimediyalardan foydalanish natijasida ish sharoitining o'zgarishi sababli foydalanuvchilarning xavfsizligi saqlash uchun bilimlari yetishmasligi sezilganda o'tkazilishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Jamiyatning taraqqiyot darajasi, davrimizning axborot asriga aylanishi, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar shuni ko'rsatadiki, yoshlarni yetuk, vaziyatni tezda baholaydigan, har qanday holatda ham to'g'ri va oqilona qaror qabul qila oladigan malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash uchun faqatgina an'anaviy uslublarga tayanib dars o'tish yetarli emas.

Bizga ma'lumki, respublikamizda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va bu sohadagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish bilim olishga, iqtisodiy sir-asrorlarini o'rganishga bo'lgan harakatni, fanni chuqur o'rganishga bo'lgan talabalarni ham kuchaytiradi. Bu esa o'z navbatida, iqtisodiy qonunlarni yaxshi biladigan, turli vaziyatlarni taqqoslash, iqtisodiy resurslar cheklangan sharoitida samarali xo'jalik yuritish uchun muqobil variantlarni to'g'ri tanlash va qaror qabul qilish malakasiga ega bo'lgan iqtisodchilar tayyorlashga talab ortadi.

Bunda esa kasb- hunar kollejlarida tahsil olayotgan bo'lajak mutaxassislarni kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish, ularda o'zi tanlagan mutaxassisligi bo'yicha mustahkam bilim va ko'nikmaga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishidan ko'rinish turibdiki, tanlangan mavzuning qanchalik dolzarbligini hamda ushbu bitiruv malakaviy ishi nafaqat nazariy, balki muhim amaliy ahamiyatga egadir. Kasb-hunar kollejlarida iqtisodiy fanlarni o'qitish jarayonida pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Men ushbu bitiruv malakaviy ishimda ya'ni KHKlarida "Baholash va kalkulyatsiya" mavzusini innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish tamoyillari (Kasb-hunar kollejlari misolida) mavzusini yoritishga va bu sohadagi mayjud muammolarni bartaraf qilish yo'llari va chorralari ko'rsatib berildi. Kuzatishlarimiz va amaliy tajribalarimiz asosida quyidagi xulasalarga keldik:

-iqtisodiy ta'limning maqsadi va vazifalari shundan iboratki, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida o'quvchi talabalarda iqtisodiy tafakkurni shakllantirish va ularni tejamkorlikka muntazam tarbiyalashdan iboratdir;

-iqtisodiy ta'lim-tarbiyani shakillantirishda yoshlarda iqtisodiy fikrlash, iqtisodiy tushunchalar, iqtisodiy xis-tuyg'ularni oliv va o'rta maxsus o'quv dargohlarida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir;

-kasb-hunar kollejlarida iqtisodiy ta'limni amalga oshirishda quyidagi metodlardan foydalanish mumkin: iqtisodiy ongni shakllantiruvchi metodlar (suhbat, ma'ruza, aqliy hujum), yangilikka bo'lgan intilishni rag'batlantirish;

- o'rta maxsus ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni o'quv tarbiya jarayonida tadbiq etish yo'lida amalga oshirilgan tadqiqot natijalarini yaxlit holda tadqiq etib, ularni iqtisodchi-pedagoglar o'rtasida ommalashtirish katta ahamiyatga molikdir.

Yuqoridagi xulosalarga asoslanib, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida iqtisodiy fanlarni o'tishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning dolzarb muommolarini yechishda quyidagilarni tavsiya qilamiz:

1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida buhgalter pedagog kadrlarni tayyorlashning zaruriyatini his etish.
2. Innovatsion texnologiyalarning iqtisodiy ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyatini ochib berish.
3. Ta'lim muassasalarining faoliyat yo'naliishlariga va xususiyatlariga muvofiq ravishda ularning faoliyatiga innovatsion texnologiyalarni tadbiq etish mexanizmini ishlab chiqish.
4. Bo'lajak buhgalter pedagoglarning mutaxassislik bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga doir elektron darsliklar yaratish, axborat texnologiyalaridan foydalanishni keng yo'lga qo'yish.
5. Iqtisodiy yo'naliishdagi ta'lim muassasalarida mutaxassislar taylorlash xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishga qaratilgan nazariy, amaliy va metodik tavsiyanomalar ishlab chiqish.

Xulosa qilib aytganda, kasb-hunar kollej talabalarining iqtisodiy savodxonligini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning o'rni va

ahamiyati mavjudligi tufayli bajarilgan ushbu bitiruv malakaviy ish nafaqat nazariy, balki muhim amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

I.O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident farmonlari va qarorlari, boshqa huquqiy hujjatlar

1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 2012.

1.2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi qonuni. -T. O'zbekiston, 1997 yil 29 avgust.

1.3. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi qonun. Oliy ta'lim. Me'yoriy hujjatalr to'plami.

1.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishlari bo`yicha harakatlar Strategiyasi »Toshkent sh., 2017 yil 7 fevral, PF-4947-son.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari

2.1. Sh.M.Mirziyoyev «Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda quramiz » Toshkent - «O'zbekiston»-2016 yil.

2.2. Sh.M.Mirziyoyev «Buyuk kelejagimizni mard va olivjanob bilan birga quramiz »«O'zbekiston»-2017 yil

2.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning mamlakatimizni 2017 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2018 yilda mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi, Oliy Majlisga yo'llagan murojatnomasi. Xalq so'zi gazetasi, 2017 yil 22 dekabr.

III. Asosiy adabiyotlar

- 3.1. Azizzxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - T., 2014.
- 3.2. Mavlonova A., To'rayeva O., Xoliqberdiyev K. Pedagogika - T.: O'qituvchi, 2013.
- 3.3. Omonov X.T., Xo'jayev N.X., Madyarova S.A. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik. - T.: Iqtisod-moliya, 2013. 97 b.
- 3.4.. Hakimova M.F., Xujayev N. Pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma
-T.: Fan va texnologiya , 2014. - 138 bet.
- 3.5.A. Xoliqov. Pedagogik mahorat. Darslik - T.: O'qituvchi, 2011.
- 3.6.J. Xasanboev va b. Pedagogika. Darslik - T.: O'qituvchi, 2011.
- 3.7. Iskandarov E.A., Suyunov O.J. Pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. – Samarqand, 2012.
- 3.8.Suyunov O. J . Yangi pedagogik texnalogiyalar va pedagogik mahorat. O'quv-uslubiy qo'llanma. – Samarqand, 2011.
- 3.9.D.Ro'ziyeva va b. Interfaol metodlar mohiyati va qo'llanilishi. – Toshkent, 2013.
- 3.10.Urazov K.B., Vaxidov S.B. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobotining xususiyatlari.- T. : "Adib nashriyoti", 2011.
- 3.11.Urazov K.B., Xudayberdiyev N.U. Soliqlar va to`lovlar ayditining xususiyatlari. Samarqand – 2012 .
- 3.12. Amonov A.A. Sud-buxfalteriya expertizasi. SamISI, 2017.
- 3.13.Urazov K.B., Xudayberdiyev N.U. Xizmat ko`rsatish sohasi korxonalarida buxgalteriya hisobi va auditining dolzarb masalalari. - T., 2012.

IV. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobatlar

- 4.1.** Iqtisodiyot va ta'lim. Jurnal. 2017. 1-3 sonlar.
- 4.2.** Xalq ta'limi. Jurnal. 2017-2018 y. 2-5 sonlar.
- 4.3.** Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2016-2017 yillardagi ma'lumotlari.

V. Internet saytlari

- 5.1.** [www.bilimdon](http://www.bilimdon.uz) uz. - O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining veb sayti.
- 5.2.** www.de.uz -masofaviy ta'lim tizimiga bag'ishlangan veb sayt.
- 5.3.** www.newhorizons.org. -Talimning yangi ufqqlari.
- 5.4.** www.ziyonet.uz sayti.
- 5.5.** www.edu.uz sayti.
- 5.6.** www.pedagog.uz - O'zbekiston pedagoglar sayti

ILOVALAR



